2020-yil 25-yanvardan chiqa boshlagan

Milliy tiklanishdan — milliy yuksalish sari

YANGI O‘ZBEKISTON

Ijtimoiy-siyosiy gazeta

№ 217 (1278), 2024-yil 26-oktabr, shanba

www.yuz.uz yuz.uznews yuz_official yuz.uz_news yuz

YO‘L VA KO‘PRIK QURIB, ODAMLARNING UZOG‘INI YAQIN, MUSHKULINI OSON QILISH ENG SAVOBLI ISH

25-oktabr kuni Qo‘ng‘irot – Beyneu avtomobil yo‘lining yangidan qurilgan 240 kilometr qismi foydalanishga topshirildi. Shu munosabat bilan bo‘lib o‘tgan marosimda Prezident Shavkat Mirziyoyev ishtirok etdi.





Bu yo‘l mamlakatimizni Yevropa davlatlari bilan bog‘laydigan strategik avtomagistraldir. Lekin uzoq yillik qatnovlar, Orolbo‘yining keskin kontinental iqlimi tufayli yaroqsiz ahvolga kelib qolgandi. Shu bois, 2021-2024-yillarda 323 million dollarlik loyiha evaziga zamonaviy qilib qayta qurildi.

Davlatimiz rahbari marosimda ushbu yo‘lning ahamiyatini alohida qayd etdi.

— Endi mamlakatimiz hududlaridan xalqaro tashuvlar masofasi 1 ming kilometrgacha, transport xarajatlari esa 25 foizgacha kamayadi. Bu yo‘l yurtimizni Kaspiy va Qora dengiz portlari orqali Yevropa bozorlari bilan ishonchli bog‘laydigan logistika tarmog‘iga aylanadi. Yana bir muhim jihati — “A-380” xalqaro yo‘lagining O‘zbekistondan o‘tgan qismida kunlik transport qatnovi 3 karra oshadi, — dedi Shavkat Mirziyoyev.

Yo‘l jahon standartlariga har tomonlama mos, tekis va ravon. U avvalo xalqimiz, qolaversa, xorijiy turistlar hamda yuk tashuvchilarga qulay va xavfsiz harakatlanish imkonini beradi.

Avvalroq “G‘uzor — Buxoro — Nukus — Beyneu” xalqaro avtomobil yo‘lining boshqa qismlari ta’mirlangan edi. Shu yil 29-fevral kuni Amudaryo ustida Qoraqalpog‘iston bilan Xorazmni bog‘laydigan yangi ko‘prik ochildi. Bunday ishlar odamlar harakatiga qulaylik yaratib, iqtisodiy faollik oshishiga, tadbirkorlik rivojlanishiga ham qo‘shimcha turtki bo‘ladi.

Hisob-kitoblarga ko‘ra, yangi yo‘l atrofida 200 dan ziyod savdo-servis obyekti va sanoat korxonasi paydo bo‘ladi. Shuning hisobidan dastlab 2 mingta, kelgusida esa yana 5 mingta ish o‘rni tashkil qilinadi. Shu tariqa Qoraqalpog‘istonda tranzit va boshqa xizmatlar hajmi yiliga 200 million dollarga, mamlakatimiz eksporti esa kamida 300 million dollarga oshishi uchun mustahkam zamin yaratiladi.

Ushbu magistral yo‘l o‘tadigan To‘rtko‘l, Ellikqal’a, Beruniy, Nukus, Xo‘jayli, Shumanay, Qonliko‘l, Qorao‘zak va Qo‘ng‘irot tumanlaridagi 1 milliondan ziyod aholi hayoti o‘zgaradi.

Prezident mazkur loyihada ishtirok etgan quruvchi va ishchilarga, Osiyo taraqqiyot bankiga, Turkiya, Ozarbayjon va xitoylik pudratchilarga, Janubiy Koreya va italiyalik konsultantlarga minnatdorlik bildirdi.

— Yo‘l va ko‘prik qurib, odamlarning uzog‘ini yaqin, mushkulini oson qilish eng savobli ishlar qatorida turadi. Biz bunyodkor yo‘lsozlarning timsolida ana shunday olijanob, elning duosi va rahmatiga sazovor bo‘lib kelayotgan zahmatkash insonlarni ko‘ramiz. Yangi O‘zbekistonning iqtisodiy salohiyati, xalqimiz farovonligini oshirishga xizmat qiladigan bunday ezgu ishlarimiz yanada ko‘paysin, — dedi davlatimiz rahbari.

Mazkur 240 kilometr yo‘lning ikki tomoni — Qoraqalpog‘istonning Qo‘ng‘irot tumani hamda “Dovud ota” bojxona postida hozir bo‘lganlar teleko‘prik orqali aloqaga chiqdi. Prezident Shavkat Mirziyoyev mamnuniyat bilan yo‘lning ochilishiga ruxsat berdi. Ushbu quvonchli voqea bilan barchani muborakbod etdi.

Marosimda davlat idoralari va jamoatchilik vakillari ham ishtirok etdi.

Shu yerda davlatimiz rahbariga muhandislik inshootlarini monitoring qilish tizimi taqdimot qilindi. Unga ko‘ra, ko‘priklarning muayyan nuqtalariga elektron uzatgichlar o‘rnatiladi. Ular orqali mustahkamlik va xavfsizlik darajasi, hozirgidek belgilangan muddatlarda emas, doimiy nazorat qilib boriladi. Kundalik me’yordan o‘zgarish sezilsa, muammo tezda aniqlanib, vaqtida chora ko‘riladi. Bu ko‘priklarning uzoq vaqt yaxshi saqlanishini ta’minlaydi.

Shuningdek, bu tizim natijasida mablag‘ tejaladi. 20 ga yaqin qog‘oz shakldagi hisobotlar raqamlashtiriladi. Monitoring ma’lumotlari 30-yilgacha saqlanadi.

Shunday birinchi loyiha Toshkent xalqaro aeroportiga eltuvchi, Bobur ko‘chasidagi yangi yo‘l o‘tkazgichda qo‘llandi. Marosimda ushbu transport bog‘lamasi ham to‘liq ochildi. Uning umumiy uzunligi 702 metr, eni 46 metr. Shuningdek, 2 ta aylana va 4 ta yoysimon “qanot”lar barpo etilib, Kichik halqa yo‘li hamda Sodiq Tolipov ko‘chalari bilan samarali bog‘langan. Bu qayrilib olishga hojat qoldirmay, avtomobillar harakatini osonlashtirdi. Umuman, ushbu transport bog‘lamasi 1 soat ichida 5 mingta, bir kecha-kunduzda 132 mingta avtomobilni o‘tkazish quvvatiga ega bo‘ldi.

Prezident bu tizimni avval poytaxtimizdagi 114 ta ko‘prikda va keyinchalik barcha ko‘priklarda tatbiq etish zarurligini ta’kidladi.

Aytish joizki, mamlakatimizda keyingi sakkiz yilda 2 ming kilometr yo‘l qaytadan qurilgan, 100 ming kilometri ta’mirlangan. Eng muhimi, bunda sifat o‘zgarmoqda, yangi turdagi polimer-beton, sement-beton qoplamalar keng qo‘llanilmoqda. Natijada yo‘llardan foydalanish muddati 1,5 barobargacha uzaymoqda.

Xorijiy kompaniyalar bilan hamkorlikda kelgusi yil yana ming kilometr yo‘l qurish bo‘yicha 10 ta yirik loyiha rejalashtirilgan.

O‘zA

XALQARO KUZATUVCHILAR YANGI O‘ZBEKISTONDAGI DEMOKRATIK O‘ZGARISHLAR VA IJTIMOIY-IQTISODIY ISLOHOTLARNI FAOL QO‘LLAB-QUVVATLAMOQDA

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 25-oktabr kuni Yevropada xavfsizlik va hamkorlik tashkilotining Demokratik institutlar va inson huquqlari bo‘yicha byurosi (YXHT DIIHB) parlament saylovini kuzatish bo‘yicha missiyasi rahbari Duglas Ueykni qabul qildi.

Uchrashuvda mamlakatimizda bo‘lajak parlament sayloviga tayyorgarlik ko‘rish va uni o‘tkazish masalalari yuzasidan batafsil fikr almashildi.

O‘zbekiston bilan YXHT va uning institutlari o‘rtasida ochiq va samarali muloqot o‘rnatilgani, xususan, byuro bilan unumli hamkorlik yo‘lga qo‘yilgani mamnuniyat bilan qayd etildi.

Bo‘lajak parlament sayloviga tayyorgarlik ko‘rish doirasida DIIHB kuzatuvchilari missiyasi faol ishlayotgani yuqori baholandi. Byuro ekspertlari milliy saylov tizimini takomillashtirish jarayonida ishtirok etdilar. Ular bildirgan tavsiya va takliflarning aksariyati inobatga olinib, mamlakatimiz qonunchiligiga tatbiq etildi.

DIIHB vakili missiya faoliyatiga ko‘rsatilayotgan e’tibor uchun samimiy minnatdorlik izhor etdi hamda Yangi O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan demokratik o‘zgarishlar va ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarni qo‘llab-quvvatlashini bildirdi.

Bu galgi saylov ilk bor yangilangan O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining parlament va mahalliy vakillik organlarining rolini kuchaytirishni nazarda tutuvchi qoidalari asosida aralash saylov tizimi bo‘yicha o‘tkazilayotgani alohida ta’kidlandi.

O‘zA

SAYLOV 2024 27-OKTABR MENING TANLOVIM — OBOD VATANIM!

YANGILANGAN SAYLOV TIZIMIDA

OVOZ BERISH JARAYONI VA UNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Saylovlarda ovoz berish huquqi demokratik jamiyatning asosiy tamoyillaridan biridir. Bu huquq fuqarolarning davlat boshqaruvida ishtiroki, xohish-irodasini erkin ifoda etishida muhim ahamiyatga ega. Ovoz berish orqali fuqarolar siyosiy pozitsiyasini namoyon etadi, siyosiy partiyalar va nomzodlarni qo‘llab-quvvatlaydi. Shu tariqa davlat hokimiyatini shakllantirish va qonun chiqaruvchi organlar faoliyatida bilvosita ishtirok etadi.

Joriy yildagi saylovlar ilk marotaba yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizda belgilab berilgan mutlaqo yangi ijtimoiy-siyosiy muhitda, parlament va mahalliy kengashlarning davlat hokimiyati tizimidagi o‘rni va vakolatlari sezilarli darajada kuchaytirilgan sharoitda o‘tkazilmoqda.

Ertaga Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va xalq deputatlari kengashlariga saylov bo‘lib o‘tadi. Yakuniga yetgan muddatidan oldin ovoz berish jarayonida bir milliondan ortiq yurtdoshimiz o‘z konstitutsiyaviy huquqlaridan foydalangani ham xalqimizning siyosiy faolligi oshib borayotganidan dalolat.

Bu yilgi saylovlar yangilangan saylov qonunchiligi va tizimi asosida bo‘lib o‘tmoqda. Shu sababli ovoz berishni tashkil etish va o‘tkazish jarayoni ham qator yangilik hamda o‘ziga xos jihatlarga ega.

Aralash saylov tizimida siyosiy partiyalar har bir ovoz uchun kurashadi

Bu gal Qonunchilik palatasiga saylovlar aralash saylov tizimida o‘tkaziladi. Endi ovoz berish kunida har bir ovoz muhim ahamiyatga ega bo‘lib, siyosiy partiyalar buning uchun kurashadi.

Mamlakatimizda bu borada eng mutanosib amaliyot tanlandi. Qonunchilik palatasidagi deputatlik o‘rinlarining 50 foizi majoritar tizim asosida bevosita nomzodlarga ovoz bergan holda, qolgan 50 foizi esa proporsional, ya’ni partiyaga ovoz berish orqali saylanadi. Bu mamlakatning turli hududi va parlament o‘rtasida geografik aloqani saqlash hamda siyosiy partiyalar orqali turli manfaatlarni ifodalash imkonini beradi.

Davomi 3-betda

Prezident qarorlari – hayotda va nazoratda

Islohotlarimiz samarasini har bir inson o‘z hayotida his etishi uchun qabul qilinayotgan hujjatlar ijrosini o‘z vaqtida va samarali ta’minlash lozim!

Shavkat MIRZIYOYEV,
O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti

VERTIKAL BOSHQARUV MEXANIZMI VA HAR BIR XODIMNING VIJDON OLDIDAGI HISOBDORLIGI

IJRO INTIZOMINI TA’MINLASHNING BOSH OMILI

Bugun dunyo miqyosida ro‘y berayotgan iqlim o‘zgarishining salbiy ta’sirlari hamda aholi soni oshib borishi nafaqat rivojlanayotgan, balki rivojlangan davlatlarda ham oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlashdek dolzarb masalani kun tartibiga qo‘ymoqda.

Oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlashdagi eng asosiy manba esa har qanday davlatda, shubhasiz, qishloq xo‘jaligidir. Shuning uchun cho‘llanish, qurg‘oqchilik, degradatsiya kabi xavf-xatarlar agrar sohada ham ilmiy izlanishlar, yangidan yangi innovatsiyalar ustida bosh qotirishga undamoqda. Shu bois, mamlakatimizda qishloq xo‘jaligini rivojlantirishga alohida e’tibor qaratilmoqda.

Agrar sohada hali foydalanilmagan imkoniyatlarni ishga solish, qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerning har bir qarichidan oqilona foydalanish, ekin maydonlari sho‘rlanishiga qarshi kurashish, sho‘rga, suvsizlikka va turli zararkunandalarga chidamli yangi ekin navlarini yaratish borasida vazirlik va uning tizim tashkilotlari tomonidan aniq muddatlarda amalga oshiriladigan **ish rejalar** va **“yo‘l xarita”**lari ishlab chiqilgan bo‘lib, ularni amalga oshirish **ijro intizomi** bilan chambarchas bog‘liq.

Davomi 2-betda

VERTIKAL BOSHQARUV MEXANIZMI VA HAR BIR XODIMNING VIJDON OLDIDAGI HISOBDORLIGI

IJRO INTIZOMINI TA’MINLASHNING BOSH OMILI

Boshlanishi 1-betda

Zero, bugun har qachongidan dolzarb bo‘lgan ijro intizomi islohotlar samarasi hayotimizda to‘laqonli aks etishi, aholi turmush darajasi va sifatini oshirish bo‘yicha natijadorlikka erishishida muhim ahamiyatga ega.

Prezidentimiz rahbarligida 2023-yil 21-noyabrda o‘tkazilgan videoselektor yig‘ilishida ijro intizomi yo‘nalishida mustahkam tizim yaratish, tartib o‘rnatish, “temir” intizomni joyiga qo‘yish, rahbarlar va xodimlarning dunyoqarashini o‘zgartirish asosiy vazifa sifatida belgilab berilgani ham mazkur sohadagi ishlarni yanada jadallashtirishni talab etmoqda.

Mazkur yig‘ilishda davlatimiz rahbari **“Yangi O‘zbekistonni barpo etish yo‘lida juda katta islohotlarni amalga oshiryapmiz. Hech bir soha e’tibordan chetda qolayotgani yo‘q. Lekin islohotlar qog‘ozda qolib ketmasligi kerak. Vazirlik va tarmoq rahbarlari, hokimlar joylarda ularning ijrosini so‘zsiz ta’minlashlari shart”,** deya muhim topshiriqlar ijrosida sustkashlikka yo‘l qo‘yilayotgani, ba’zi rahbarlar raqamlar ortidan quvib, sifat, samaradorlik va talabchanlikni unutib qo‘yayotganini qayd etgandi.

Shuningdek, yig‘ilishda **ijro intizomini ta’minlash, barcha dastur, “yo‘l xaritasi”** va **loyihalarni** o‘z muddatida bajarish lozimligi qat’iy ta’kidlangan edi.

Ish yuritishning samarali uslubi

Mazkur yig‘ilishda belgilab berilgan topshiriqlar, Prezident farmoni va qarorlari hamda hukumat qarorlari ijrosini o‘z muddatida ta’minlash maqsadida Qishloq xo‘jaligi vazirligi va uning tizim tashkilotlari o‘rtasida vertikal boshqaruv tizimi yo‘lga qo‘yildi.

O‘tgan qisqa davr mobaynida mazkur boshqaruv tizimi vazirlik va tizim tashkilotlari rahbarlarining eng quyi bo‘g‘ingacha tushib borib, agrar sohada aholini qiynab kelayotgan muammo va kamchiliklar yechimini topishi, agrar sohadagi islohotlar samarasi har bir xonadongacha kirib borayotgani, natijada mazkur sohada band bo‘lgan yurtdoshlarimiz soni ortib, moddiy farovonligi yaxshilanayotgani bilan o‘z samaradorligini ko‘rsatdi.

Bundan tashqari, ish yuritishning ushbu uslubi tufayli sohadagi islohotlar izchilligini ta’minlash, muhim ahamiyatga ega bo‘lgan qonunchilik hujjatlari va Prezident topshiriqlari ijrosi vazirlik tomonidan qat’iy tartib va intizom asosida tizimli tashkil etilmoqda.



Ibrohim ABDURAHMONOV, qishloq xo‘jaligi vaziri

Chekka hududlar aholisi daromadlarini oshirish, mahallalarni muayyan qishloq xo‘jaligi ekinlari yetishtirishga ixtisoslashtirish borasida **Sayxunobod, Uychi, Oltiariq** tajribalarini barcha hududlarda ommalashtirish bo‘yicha keng qamrovli ishlar amalga oshirildi.

Ijro intizomi natijadorlikni ta’minlovchi muhim ko‘rsatkich

Vazirlik tizimida ijro intizomini mustahkamlash, qonunchilik hujjatlari va topshiriqlar ijrosini belgilangan muddatlarda, sifatli bajarishga alohida e’tibor qaratilmoqda.

Prezidentimizning 2021-yil 10-fevraldagi “**Qonunchilik hujjatlari ijrosini samarali tashkil etishda davlat boshqaruvi organlari va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari rahbarlarining shaxsiy javobgarligini kuchaytirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi** farmoni vazirlik tizimida qat’iy intizom o‘rnatishga huquqiy zamin yaratdi.

Shuningdek, davlatimiz rahbarining 2021-yil 31-maydagi **“Ijro.gov.uz” ijro intizomi idoralararo yagona elektron tizimi samarali faoliyat ko‘rsatishini ta’minlashga qaratilgan qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida**”gi qarori ijro intizomiga mas’ul bo‘linmalarning ijro intizomini mustahkamlashdagi roli hamda davlat organlari va tashkilotlari rahbarlarining shaxsiy mas’uliyatini oshirishda mustahkam huquqiy asos bo‘lib xizmat qilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning 2020-2030-yillarga mo‘ljallangan strategiyasi qabul qilinib, unda ustuvor yo‘nalish va vazifalar belgilab berilgan.

Unda belgilangan tadbirlar ijrosini ta’minlash, xususan, qishloq xo‘jaligida bozor munosabatlarini keng joriy etish, oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlash, qayta ishlash va eksport infratuzilmasini rivojlantirish orqali qo‘shilgan qiymat zanjirini yaratish, sohada agroklasterlar va kooperatsiyalarni tashkil etish hamda mahsulot yetishtiruvchilarni qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha izchil islohotlar kechmoqda.

2024-yil III chorak yakuni bo‘yicha agrar va oziq-ovqat sohalarida **jami 129 ta hujjat loyihasi,** shundan **O‘zbekiston Respublikasi qonuni (10 ta), Prezidentimizning farmon va qarori (32 ta), Vazirlar Mahkamasining qaror va farmoyishi (70 ta)** hamda **idoraviy normativ-huquqiy hujjatlar loyihalari (17 ta)** ishlab chiqildi.

Ijro intizomi har qanday davlat organlari va tashkilotlarning faoliyati natijadorligini ta’minlovchi eng muhim hamda asosiy ko‘rsatkichlaridan biridir. Shu bois, agrar sohaga oid barcha hujjatlar ijrosini ta’minlash nafaqat vazirlik rahbariyati, balki qishloq xo‘jaligining eng quyi bo‘g‘inigacha bo‘lgan barcha xodimlarning burchiga aylangan.

Vazirlik tomonidan bu borada “**Ijro.gov.uz”** elektron tizimiga kiritilgan qonunchilik hujjatlari va topshiriqlarning bajarilishi bo‘yicha **Adliya vazirligi** va **Hisob palatasi** bilan **“texnologik zanjir”** asosida doimiy hamkorlikda ish olib borilmoqda.

Xususan, **2024-yil III chorak** davomida Qishloq xo‘jaligi vazirligi markaziy apparatiga **jami 25 ming 526 ta**, jumladan, Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va Senatidan **182 ta,** Prezident Administratsiyasidan **327 ta,** Vazirlar Mahkamasidan **1633 ta** topshiriq kelib tushgan.

KPI ko‘rsatkichlar baholansagina, xodimlar mas’uliyatni his qiladi

Bugun dunyoda hukm surayotgan geosiyosiy vaziyat va uning aksariyat davlatlar o‘rtasidagi logistika xizmatlariga salbiy ta’siri, mamlakatimiz aholisining kun sayin oshib borayotgani fonida yurtimiz bozorlarini sifatli oziq-ovqat va qishloq xo‘jaligi mahsulotlari bilan ta’minlash, qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini qayta ishlash va qo‘shilgan qiymat zanjirini yaratish orqali import o‘rnini bosuvchi va eksportbop mahsulotlar yetishtirish, sohada yangi ish o‘rinlari yaratish kabi kechiktirib bo‘lmaydigan dolzarb vazifalar ijrosi vazir bilan birga uning o‘rinbosarlariga ham katta mas’uliyat yuklaydi.



Shu bois, vazir o‘rinbosarlari faoliyatini **samaradorlik va maqsadli vazifalarga erishishning asosiy mezonlari orqali baholash tizimi** joriy etilgan bo‘lib, **har chorak yakuni** bilan vazirlikning hay’at yig‘ilishida tanqidiy ravishda muhokama qilib borilmoqda.

Vazirlik markaziy apparati boshqarmalari va vazirlik tasarrufidagi respublika tashkilotlari rahbarlari faoliyati samaradorligini baholash tartibi va maqsadli vazifalarga erishishini baholashning **asosiy mezonlari (KPI ko‘rsatkichlari)** tasdiqlangan.

Bularning barchasi vazirlik tizimida ijro intizomini, qolaversa, Prezident hamda Vazirlar Mahkamasi topshiriqlari bilan yuklatilgan vazifalar, funksiyalar va prognoz (indikator) ko‘rsatkichlari ijrosini belgilangan muddatlarda, sifatli va to‘laqonli ta’minlash orqali qishloq xo‘jaligida islohotlar natijadorligini oshirish va samaradorligini mustahkamlashga asos bo‘lmoqda.

Agrar sohada erishilgan natijalar

Prezidentimizning 2019-yil 17-iyundagi **“Qishloq xo‘jaligida yer va suv resurslaridan samarali foydalanish chora-tadbirlari to‘g‘risida”**gi farmoni ijrosi doirasida hisobot davrida jami **124,6 ming** gektardan ortiq maydon foydalanishga kiritilib, **30 mingta** ish o‘rni yaratildi. Shuningdek, **641,7 ming** gektar maydonda zamonaviy suv tejovchi texnologiyalar joriy qilinib, ekinlarni sug‘orishda **1,9 milliard kub metr** suv iqtisod qilindi.

Aholining oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlash maqsadida 2024-yil hosili uchun fermer va qishloq xo‘jaligi korxonalarida **jami 3,9 million gektar** yerga ekin ekildi. Bu o‘tgan yildagiga nisbatan **270 ming gektar** ko‘p bo‘lib, shundan asosiy maydonlar **3,1 million gektar,** lalmi yerlar **433,1 ming gektar** va bog‘-tok qator oralari **239,4 ming gektarni** tashkil etadi.

2024-yil — “Yoshlar va biznesni qo‘llab-quvvatlash yili”da qishloq yoshlarining ijtimoiy muammolarini hal etish va bandligini ta’minlash maqsadida dehqonchilik bilan shug‘ullanish istagidagi yoshlar uchun **54,3 ming gektar** yerda **150,8 mingta** dehqon xo‘jaligi tashkil etilib, tajribali dehqonlar ko‘rsatmasi bo‘yicha mahsulot yetishtirishning yangi tizimi joriy qilindi.

Yer ajratishda davlat ishtirokini kamaytirish (byurokratik to‘siqlar), dehqon xo‘jaligini yuritish uchun yer ajratish tizimini takomillashtirish hamda 2021-yilda boshlangan yer islohotlarining huquqiy asoslarini mustahkamlash maqsadida 2021-yil 8-iyunda Prezidentimizning “Yer munosabatlarida tenglik va shaffoflikni ta’minlash, yerga bo‘lgan huquqlarni ishonchli himoya qilish va ularni bozor aktiviga aylantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoni qabul qilinib, inson omilisiz elektron yer ajratishning aniq mexanizmlari belgilab berildi.

Yer munosabatlarida tenglik va shaffoflikni ta’minlash, meva-sabzavotchilik va uzumchilikda oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish maqsadida Qishloq xo‘jaligi vazirligining **“E-IJARA” axborot tizimi** ishlab chiqildi.

Qishloq xo‘jaligi yerlari degradatsiyasiga qarshi kurashish maqsadida sug‘oriladigan **670 ming gektar** yerda tuproq sifatini baholash, **499 ming gektar** yerning sho‘rlanish darajasini aniqlash hamda **691 ming gektar** maydonda tuproq agrokimyoviy tahlili o‘tkazilib, agrokimyoviy kartogramma va xaritalar tuzildi.

Tuproq sifati, sho‘rlanishi, agroximkartogrammasi, geobotanik tadqiqot natijalarini tizimlashtirish, geolokatsiya bo‘yicha aniq ma’lumotlar bazasini yaratish maqsadida **“Field Maps” mobil dasturi** ishga tushirildi.

Barcha toifadagi **358 ming gektar** mevali bog‘ va **196 ming gektar** tokzor xatlovdan o‘tkazildi. Ayni paytda fermer xo‘jaliklari va qishloq xo‘jaligi korxonalarida **266 ming gektar** bog‘ va **132 ming gektar** tokzor mavjud bo‘lsa, aholi tomorqalarida bog‘lar **93 ming gektarni,** tokzorlar esa **63 ming gektarni** tashkil etmoqda.

Joriy yil bahorida **16,3 ming gektar** mevali bog‘ va **60,2 ming gektar** uzumzor barpo etilib, bu maydonlarga **15,5 million tup** mevali daraxt hamda **75,9 million tup** tok ko‘chati ekildi. Kam hosilli, iqtisodiy samarasiz **17,5 ming gektar** bog‘ va **16,7 ming gektar** tokzor rekonstruksiya qilindi.

Mahsulotlarni qayta ishlash orqali qo‘shimcha qiymat zanjiri va eksport geografiyasi kengaymoqda

Yetishtirilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini qayta ishlash orqali qo‘shimcha qiymat zanjirlarini yaratishga alohida e’tibor qaratilmoqda.

Eksport salohiyatini yanada oshirish maqsadida qishloq xo‘jaligi va oziq-ovqat sanoatida faoliyat yuritayotgan korxonalarga **Organic, Global G.A.P., Halal, ISO 9001, ISO 22000** kabi xalqaro standartlar talablarini joriy etish yuzasidan **1335 ta** tashabbuskor ro‘yxati shakllantirilib, bugungi kunda korxonalar tomonidan xalqaro standartlar talablarini joriy qilish ishlari amalga oshirilmoqda.

Eksport geografiyasi ham **7 ta davlatga** kengayib, **91 ta davlatga 1,5 milliard dollarlik** qishloq xo‘jaligi va oziq-ovqat mahsulotlari eksport qilindi. Eksport bozorining katta qismini **Rossiya, Xitoy, Ozarbayjon, Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Pokiston, Afg‘oniston** kabi davlatlar tashkil etmoqda.

Investitsiya dasturi doirasida **318 million dollar** o‘zlashtirish rejalashtirilgan bo‘lib, amalda **17 ta loyihada 326,3 million dollar** o‘zlashtirildi. Xususan, “Qishloq xo‘jaligini modernizatsiya qilish” loyihasi doirasida **100,1 million dollar** hamda “Meva-sabzavot sanoatida qo‘shilgan qiymat zanjirini ishlab chiqish” loyihasida **92,2 million dollar** miqdorida xalqaro moliya institutlari mablag‘lari o‘zlashtirildi.

Hududiy investitsiya dasturi doirasida **4,9 trillion so‘mlik 954 ta** loyiha ishga tushirildi va **11,5 mingta** yangi ish o‘rni yaratildi.

Agrar sohada klaster usulida faoliyat yuritish tizimi 2017-yilda ilk bor paxtachilikda joriy etilib, barmoq bilan sanarli klasterlar faoliyati tashkil etilgan bo‘lsa, 2024-yilga kelib ularning soni **671 taga yetdi** va bozor iqtisodiyotida o‘zining raqobatbardoshligini ko‘rsatdi.

Ayni paytda paxtachilik yo‘nalishida **155 ta,** g‘allachilik yo‘nalishida **126 ta,** meva-sabzavotchilik yo‘nalishida **136 ta klaster** faoliyat yuritayotgan bo‘lsa, yana **254 ta klaster** qishloq xo‘jaligining boshqa yo‘nalishlarida ishlamoqda.

Natijada klasterlarda mahsulotni qayta ishlash darajasi **paxtachilikda 91 foizdan 96 foizga, g‘allachilikda 48 foizdan 56 foizga, meva-sabzavotchilikda 50 foizdan 53 foizga oshdi.** Shuningdek, paxtachilik klasterlarining eng muhim samaradorlik ko‘rsatkichlari reytingini yuritish dasturi ishlab chiqildi va Kiberxavfsizlik markazidan ro‘yxatdan o‘tkazildi. Oziq-ovqat sanoatida **72,5 trillion so‘mlik** mahsulot ishlab chiqarilib, o‘tgan yildagiga nisbatan **o‘sish 115,8 foizni** tashkil etdi.

Prezidentimizning 2021-yil 3-fevraldagi tegishli farmoni hamda qarori bilan qishloq xo‘jaligida ta’lim, ilm-fan, ishlab chiqarish hamda agroxizmatlar ko‘rsatishning uzviy tizimini o‘zaro bog‘laydigan Qishloq xo‘jaligida bilim va innovatsiyalar milliy markazi hamda Toshkent viloyatida Agroxizmatlar markazi (AKIS) tashkil etildi.

AKIS markazlarida **100 dan ortiq agroxizmat** ko‘rsatilmoqda hamda “daladan dasturxongacha” tamoyili asosida xalqaro sifat standarti va sertifikatlari joriy etilmoqda.

Amalga oshirilgan tizimli va izchil islohotlar natijasida **2024-yil III choragi davomida** qishloq, o‘rmon va baliqchilik mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi **344,6 trillion so‘mni, o‘sish esa 104 foizni** tashkil qildi. Shundan **158,8 trillion so‘mlik (104,5 foiz) dehqonchilik va 174,1 trillion so‘mlik (103,6 foiz) chorvachilik mahsulotlari** ishlab chiqarildi.

Davlatimiz rahbarining 2019-yil 3-oktabrdagi farmoni ijrosini ta’minlash maqsadida 2020-yil sentyabrdan boshlab Davlat xizmatini rivojlantirish agentligi bilan hamkorlikda birinchilardan bo‘lib vazirlik markaziy apparatida, so‘ngra hududlarda mustaqil ochiq tanlov tizimi yo‘lga qo‘yildi.

Mazkur tizim orqali joriy yilda markaziy apparatdagi **jami 55 ta vakant lavozimga** e’lon berilib, **55 nafar salohiyatli, yosh kadr** ishga qabul qilindi.

Tanlov natijasida xodimlar sifat tarkibi yaxshilanishiga erishilib, **oliy ma’lumotlilar ulushi 100 foizga, xorijda tahsil olganlar soni 18 nafarga** yetdi.

Umuman olganda, vazirlikda normativ-huquqiy hujjatlar asosida ijro intizomiga rioya etish hamda hujjatlar bilan ishlashda aniq va tizimli mexanizm yaratildi.

Biroq bugungi kunda erishilgan natijalar bilan kifoyalanib qolmay, kelgusida ham vazirlik va soha oldida turgan serqirra vazifalarning o‘z vaqtida va sifatli ta’minlanishi uchun ijro intizomini yanada mustahkamlash lozim.

O‘ZBEKISTON VA QOZOG‘ISTON O‘RTASIDA STRATEGIK HAMKORLIK KUCHAYMOQDA

Uchrashuv

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Strategik islohotlar agentligida Qozog‘iston Respublikasi delegatsiyasi bilan 2025-yilga mo‘ljallangan strategik islohotlar doirasida hamkorlikni chuqurlashtirish masalalariga bag‘ishlangan uchrashuv bo‘lib o‘tdi.

Tadbirda Strategik islohotlar agentligi direktori Bahodir Rahmatov, Qozog‘iston Respublikasi Senati raisi o‘rinbosari Jaqip Asanov, Qozog‘istonning O‘zbekistondagi elchixonasi, Qozog‘iston Respublikasi Strategik rejalashtirish va islohotlar agentligi vakillari ishtirok etdi.

Uchrashuvda davlat boshqaruvini modernizatsiyalash, raqamli texnologiyalar, barqaror rivojlanish va investitsiyalarni jalb qilish kabi yo‘nalishlardagi strategik ustuvorliklarga alohida e’tibor qaratildi. Tomonlar umumiy maqsadlarga erishish uchun sa’y-harakatlarni muvofiqlashtirish zarurligini ta’kidladi va boshqaruv jarayonlariga innovatsion texnologiyalarni integratsiya qilish muhimligini qayd etdi.

— Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining Ostona shahrida bo‘lib o‘tgan oltinchi maslahat uchrashuvida “Markaziy Osiyo — 2040” mintaqaviy hamkorlikni rivojlantirish konsepsiyasi qabul qilinishi qo‘shma sa’y-harakatlarimiz bilan mintaqada muhim bozor yaratilayotganidan dalolat beradi, — dedi Strategik islohotlar agentligi direktori Bahodir Rahmatov. — Yaqinda Samarqandda bo‘lib o‘tgan mintaqalararo forumda qiymati 352 million dollardan ortiq bo‘lgan kelishuvlar imzolangani hamkorlikni mustahkamlash yo‘lidagi yana bir qadam hisoblanadi. Shuningdek, 27-oktabr kuni ilk bor aralash — majoritar-proporsional tizim asosida o‘tkaziladigan saylovda qozog‘istonlik kuzatuvchilar ishtirokini olqishlaymiz. Strategik islohotlar sohasidagi hamkorlikni yanada mustahkamlashga ochiqligimizni bildirgan holda 2025-yilga mo‘ljallangan ishlarni boshlashga tayyormiz.



27-oktabr kuni ilk bor aralash — majoritar-proporsional tizim asosida o‘tkaziladigan saylovda qozog‘istonlik kuzatuvchilar ishtirokini olqishlaymiz. Strategik islohotlar sohasidagi hamkorlikni yanada mustahkamlashga ochiqligimizni bildirgan holda 2025-yilga mo‘ljallangan ishlarni boshlashga tayyormiz.

Bundan tashqari, tadbirda ta’lim, fan va texnologiyalar, shuningdek, infratuzilmani yaxshilash va tadbirkorlik uchun qulay sharoitlar yaratishga qaratilgan qo‘shma tashabbuslarni ilgari surish sohalarida hamkorlikni faollashtirish yo‘llari muhokama qilindi. Qozog‘iston tomoni mintaqaviy barqarorlik va iqtisodiy farovonlik masalalarida O‘zbekiston bilan hamkorlikning muhimligini ta’kidladi.

Tadbir yakunida tomonlar uzoq muddatli barqaror iqtisodiy o‘sishni ta’minlash, fuqarolarning farovonlik darajasini ko‘tarish va Markaziy Osiyoda barqarorlikni mustahkamlashga qaratilgan islohotlarni amalga oshirish niyatini tasdiqladi.

Lutfulla SUVONOV,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

YANGI O‘ZBEKISTON

yuz.uz yuz_official yuz.uz_news yuz

Aralash saylov tizimida saylovchi ikkita byulleten orqali ovoz beradi: birinchisida muayyan nomzodga ovoz bersa, boshqasida esa o‘zi ishongan partiyani belgilaydi. Ushbu tizim qator ijobiy xususiyatlarga ega. Bu yangi amaliyot saylovchilar tanlovini kengaytirishga xizmat qiladi.

DAVR NAFASI

3

2024-yil 26-oktabr, 217-son



YANGILANGAN SAYLOV TIZIMIDA

OVOZ BERISH JARAYONI VA UNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI



Hayitjon TURDIYEV,
Toshkent davlat yuridik universiteti dotsenti

Boshlanishi 1-betda

Ilk marotaba saylovchilar proporsional saylov tizimida siyosiy partiyalarga ovoz beradi. Proporsional saylov tizimida vakillik organidagi deputatlik o‘rinlari siyosiy partiyalarga berilgan ovozlarga mutanosib ravishda siyosiy partiyalarning deputatlikka nomzodlar ro‘yxati o‘rtasida taqsimlanadi. Mazkur tizim ko‘ppartiyaviylik tizimi rivojlanishiga xizmat qiladi hamda parlamentda jamiyatning turli qatlamlari manfaatini ifodalashda ijobiy ahamiyat kasb etadi.

Saylovchi to‘rtta byulleten orqali ovoz beradi

Qonunchilik palatasi, xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar kengashlari deputatlari saylovi uchun bu galgi byulletenlar mutlaqo yangi shaklda tasdiqlandi.

Bundan tashqari, har bir saylov turi uchun byulletenlarning rangi ham turlicha, ya’ni Qonunchilik palatasining bir mandatli saylov okrugi bo‘yicha saylov byulleteni och ko‘k, yagona saylov okrugi bo‘yicha och yashil, xalq deputatlari viloyat va Toshkent shahri kengashi saylovi bo‘yicha och sariq, xalq deputatlari tuman, shahar kengashi saylovi bo‘yicha och kulrang tusda qilib belgilandi.

Shuningdek, aralash saylov tizimida saylovchi ikkita byulleten orqali ovoz beradi: birinchisida muayyan nomzodga ovoz bersa, boshqasida esa o‘zi ishongan partiyani belgilaydi. Ushbu tizim qator ijobiy xususiyatlarga ega. Bu yangi amaliyot saylovchilar tanlovini kengaytirishga xizmat qiladi. Chunki endi saylovchi bir mandatli saylov okrugi bo‘yicha siyosiy partiyadan ko‘rsatilgan nomzodga o‘z hududi manfaatidan kelib chiqib ovoz berish hamda yagona saylov okrugi bo‘yicha boshqa bir siyosiy partiyaga ham ovoz berish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Barcha saylovchilarning ovozi saylov natijalariga bevosita ta’sir ko‘rsatadi.

Ovoz berish jarayonini o‘tkazish hamda ovoz berish joyidagi sharoitlar

Saylovchilar saylov uchastkalarida tanlovini amalga oshiradi. Uchastka saylov komissiyasi saylovgacha va ovoz berish kuni qator vazifalarni bajaradi.

Uchastka saylov komissiyasining ovoz berishdan oldingi faoliyatida quyidagilarni amalga oshiradi: yashirin ovoz berish uchun binoni ovoz berish boshlanguniga qadar tayyor holatga keltiradi, uchastka saylov komissiyasi a’zolari orasida vazifalarni taqsimlaydi hamda komissiyaning ikki a’zosi tomonidan imzolangan, muhr bilan tasdiqlangan saylov byulletenlarini tayyorlaydi.

Ovoz berish jarayoni maxsus ajratilgan binolarda bo‘lib o‘tadi. Bu binolarda yashirin ovoz berish uchun yetarli miqdorda kabinalar yoki xonalar jihozlanadi, saylov byulletenlarini berish uchun joylar ajratiladi hamda saylov qutilari o‘rnatiladi. Saylov qutilari ovoz beruvchilar ularning yoniga, albatta, yashirin ovoz berish kabinalari yoki xonalari orqali o‘tib keladigan qilib o‘rnatiladi.

Ovoz berish binolariga tutash hududlar obodonlashtiriladi, fuqarolar, ayniqsa, jismoniy imkoniyati cheklangan shaxslar uchun zarur shart-sharoit yaratiladi.

Eng muhimi, saylovchilar tanishib chiqishi uchun uchastka saylov komissiyalari joylashgan binolar bir mandatli saylov okruglari bo‘yicha ro‘yxatga olingan barcha nomzodning Markaziy saylov komissiyasi, hududiy, tuman, shahar saylov komissiyasi tomonidan chop etilgan tarjimayi holi va dasturlarining asosiy yo‘nalishlari hamda saylovda ishtirok etayotgan siyosiy partiyaning Markaziy saylov komissiyasi tomonidan nashr qilingan dasturi, partiya ro‘yxatiga ega bo‘lishi kerak.

Saylovda ovoz berish jarayoni qachon boshlanadi?

Saylovda ovoz berish jarayoni saylov kuni soat 8:00 dan 20:00 gacha o‘tkaziladi. Ovoz berish vaqti va joyi to‘g‘risida uchastka saylov komissiyasi saylovchilarni saylovdan kamida o‘n kun oldin xabardor qiladi.

O‘zbekiston Respublikasining chet davlatlardagi diplomatik va boshqa vakolatxonalari huzurida tuzilgan saylov uchastkalarida ovoz berish saylov kuni ushbu saylov uchastkalari joylashgan yerdagi mahalliy vaqt bilan soat 8:00 dan 20:00 gacha o‘tkaziladi.

O‘zbekiston Respublikasining chet davlatlardagi diplomatik va boshqa vakolatxonalari huzurida, harbiy qismlar, sanatoriylar, dam olish uylari, shifoxonalar va boshqa statsionar davolash muassasalari, olis va borish qiyin bo‘lgan hududlardagi fuqarolar turgan joylarda, qamoqda saqlash va ozodlikdan mahrum etish joylarida tuzilgan saylov uchastkalarida uchastka saylov komissiyasi, agar ro‘yxatga kiritilgan barcha fuqaro ovoz berib bo‘lgan bo‘lsa, ovoz berish tugagani istalgan vaqtda e’lon qilinishi mumkin.

O‘zbekiston Respublikasi hududida joylashgan saylov uchastkalarida saylov qutilarini soat 20:00 dan oldin ochish va ovozlarni sanab chiqishga yo‘l qo‘yilmaydi.

Ovoz berish qay tartibda o‘tkaziladi?

Saylovchi ovoz berish binosiga kelgach, uchastka saylov komissiyasi a’zosiga o‘z shaxsini tasdiqlovchi hujjatni ko‘rsatadi hamda saylovchilar ro‘yxatiga imzo qo‘yadi. Shundan keyin unga saylov byulleteni beriladi. Biror sababga ko‘ra saylovchilar ro‘yxatiga familiyasi kirmay qolgan saylovchilarning familiyasi saylovchining shaxsi, fuqaroligi va yashash joyini tasdiqlovchi hujjat asosida saylovchilar ro‘yxati ilovasiga kiritiladi.

Saylovchi saylov byulletenini olgach, uni yashirin ovoz berish kabinasi yoki xonasida to‘ldiradi. Saylov byulletenini to‘ldirish chog‘ida ovoz beruvchi shaxsdan boshqa shaxslarning hozir bo‘lishi taqiqlanadi. Saylov byulletenini mustaqil to‘ldirish imkoniyatiga ega bo‘lmagan saylovchi o‘z xohishiga ko‘ra yashirin ovoz berish kabinasi yoki xonasiga boshqa shaxsni taklif qilishga haqli. Bundan saylov komissiyasi tarkibiga kiradigan shaxslar, kuzatuvchilar va ommaviy axborot vositalari vakillari mustasno.

Saylovchi o‘zi yoqlab ovoz berayotgan nomzodning familiyasi, siyosiy partiyaning nomi ro‘parasida, o‘ng tomonda joylashgan bo‘sh kvadratga “+” yoki “✔” yoxud “x” belgisini qo‘yadi.

Ovoz beruvchi to‘ldirilgan saylov byulletenini saylov qutisiga tashlaydi. Ayrim holatlarda buzib qo‘yilgan saylov byulleteni saylovchining iltimosiga ko‘ra yangisiga almashtirilishi mumkin.

Saylov byulletenini berish tartibini buzganlik uchun javobgarlik belgilandi

Ovoz berish jarayonini saylov qonunchiligi va xalqaro standartlarga mos ravishda o‘tkazish maqsadida saylov (ovoz berish) byulletenlarini berish tartibini buzganlik uchun ma’muriy javobgarlik belgilandi. Ushbu yangilik har bir fuqaroning teng saylov huquqlari kafolatini mustahkamlash, “oilaviy” ovoz berish holatlarining oldini olishga qaratilgan.

Xususan, Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksning 5110-moddasiga asosan, saylov komissiyasi a’zosi tomonidan fuqarolarga bir necha marta yoki boshqa shaxslar nomidan ovoz berish uchun saylov byulletenini berganlik uchun bazaviy hisoblashning bir barobari miqdorida ma’muriy jarimaga tortish nazarda tutilgan.

Saylovchilar turgan joyida ovoz berish imkoniyatiga ega

Ayrim saylovchilar sog‘lig‘i yoki boshqa sabablarga ko‘ra ovoz berish binosiga kela olmagan hollarda tegishli uchastka saylov komissiyasi ovoz berishni ushbu saylovchilarning iltimosiga binoan ular turgan joyda tashkil etadi.

Bunday hollarda tegishli komissiyaning kamida ikki a’zosi ko‘chma saylov qutisi bilan saylovchi turgan joyga yuboriladi. Ular saylovchining xohish-irodasi sir saqlanishiga rioya etgan holda ovoz berilishini ta’minlaydi. Bunda kuzatuvchilar va ommaviy axborot vositalari vakillari hozir bo‘lishi mumkin.

Joriy yilgi saylovlarda nogironligi bo‘lgan shaxslarning saylov huquqi erkin va hech qanday to‘siqlarsiz amalga oshirilishi uchun uyma-uy yurib, 832 ming nogironligi bor shaxs aniqlangan. Shundan 105 mingi saylovda ishtirok etishda ko‘makka muhtoj bo‘lib, ularga 16 mingga yaqin volontyor biriktirilgan.

Jismoniy imkoniyati cheklanganlar uchun zarur sharoit yaratiladi

Eng avvalo, ovoz berish binolari jismoniy imkoniyati cheklangan shaxslarning kirishiga qulay, jumladan, ovoz berish xonasi binoning birinchi qavatida bo‘lishi, avtotransport vositalari to‘xtab turish joyida nogironligi bo‘lgan shaxslarga alohida joy ajratilishi lozim.

Shu bilan birga, uchastka saylov komissiyasi binosiga kirish joyida nogironlar aravachasiga moslashtirilgan nishab yo‘laklar (panduslar) bo‘lishi va ular belgilangan talablarga mos kelishi kerak. Binoga kirishda nishab yo‘laklarni o‘rnatish imkoni bo‘lmasa, kirish joyida “yordamga chaqirish” tugmasi o‘rnatilishi lozim.

Shuningdek, saylovchilar ro‘yxatida ko‘zi ojiz va zaif ko‘ruvchi saylovchilar mavjud bo‘lgan saylov uchastkalari optik lupalar (kattalashtiruvchi oynalar), qo‘shimcha yoritqichlar, stul hamda Brayl alifbosi asosida tayyorlangan trafaretlar bilan jihozlanishi mumkin.

Xorijdagi fuqarolar proporsional saylov tizimida siyosiy partiyalarga ovoz beradi

O‘zbekiston Respublikasining chet davlatlardagi diplomatik va boshqa vakolatxonalari huzurida tuzilgan saylov uchastkalarida ovoz berish saylov kuni ushbu saylov uchastkalari joylashgan hududdagi mahalliy vaqt bilan soat 8:00 dan 20:00 gacha o‘tkaziladi. Xorijda tuzilgan saylov uchastkalaridagi saylovchilar soni haqida O‘zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi tomonidan taqdim etilgan ma’lumotlar asosida Markaziy saylov komissiyasi saylov byulletenlarining tayyorlanishi va yetkazib berilishini ta’minlaydi.

Jumladan, O‘zbekiston Respublikasining 40 ta chet davlatdagi diplomatik va boshqa vakolatxonalari huzurida 57 ta saylov uchastkasi tuzilgan.

Xorijdagi yurtdoshlarimiz uchun yaratilgan yana bir imkoniyat muddatidan oldin ovoz berish va uni saylovchi turgan joyda amalga oshirish bilan bog‘liq. Ya’ni O‘zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalariga va chet davlatlarning vakolatli davlat hokimiyati organlari bilan kelishuvlariga muvofiq chet davlatlarning aholi zich joylashgan hududlarida muddatidan oldin ovoz berish saylovchi turgan joyda o‘tkazilishi mumkin.

Bunda xorijda tuzilgan uchastka saylov komissiyasi saylovchilar turgan joyda ovoz berish vaqti hamda joyi to‘g‘risida qaror qabul qiladi va bu haqda saylovchilarni, kuzatuvchilarni ommaviy axborot vositalari orqali xabardor etadi.

Eng muhim yana bir yangilik — xorijdagi fuqarolar Qonunchilik palatasi saylovida yagona saylov okrugi, ya’ni proporsional saylov tizimi bo‘yicha ovoz berishi belgilandi.

Qonunchilik palatasi saylovida xorijdagi saylov uchastkalari odatda Toshkent shahridagi saylov okruglariga biriktirilgan bo‘lib, O‘zbekistonning turli hududidan borgan fuqarolar Toshkent shahridan saylanadigan deputatlarga ovoz berish holati xorijdagi fuqarolar orasida turli tushunmovchiliklarga olib kelgan.

Aralash saylov tizimida esa, ya’ni majoritar va proporsional saylov tizimi joriy etilishi munosabati bilan xorijdagi saylovchilar yagona saylov okrugi orqali siyosiy partiyalarga ovoz beradi.

Saylovda ilk bor elektron ovoz berish sinovdan o‘tkaziladi

Markaziy saylov komissiyasi tomonidan 2024-yil 27-oktabr kuni Qonunchilik palatasi va mahalliy kengashlar deputatligiga bo‘lib o‘tadigan saylovlarda sinov tariqasida elektron ovoz berish pilot loyihasi ishlab chiqildi. Bu jarayonda fuqarolar elektron ovoz berish uskunasida elektron saylov byulletenini to‘ldiradi va tasdiqlaydi. Shundan so‘ng ovoz berish natijasi maxsus printerda avtomatik tarzda chop etilib, saylov qutisiga tushadi.

Mazkur pilot loyihani Toshkent shahridagi 10 ta saylov uchastkasida tajriba-sinov tariqasida amalga oshirish rejalashtirilmoqda.

Ovozlarni hisoblashda nisbiy ko‘pchilik tamoyili qo‘llanadi

O‘zbekistonda shu paytga qadar vakillik organlariga saylovlarda mutlaq ko‘pchilik amaliyotidan foydalanilgan. Shunga ko‘ra, mutlaq ko‘pchilik tizimida nomzodlarning hech biri mutlaq ko‘pchilik ovozga ega bo‘lmasa (50 foiz + 1 ovoz), ikkinchi tur tashkil etilgan. Unda odatda eng ko‘p ovoz olgan ikki nomzod o‘rtasida takroriy ovoz berish jarayoni tashkil etib kelingan.

Majoritar tizimning nisbiy ko‘pchilik turiga asoslangan saylovlarda g‘alaba qozonish uchun nomzod o‘z raqobatchilariga nisbatan ko‘proq ovoz olishi kerak va bu yerda mutlaq ko‘pchilik, ya’ni yarmidan ko‘p ovoz olishi shart emas. Nisbiy ko‘pchilik amaliyoti saylovlarda ovoz berish natijalarini aniqlashning ancha sodda va iqtisodiy jihatdan tejamkor usuli hisoblanib, saylovni bir turda o‘tkazish imkonini beradi.

Saylovda kamida 7 foiz ovoz to‘plagan siyosiy partiyalargina deputatlik o‘rinlariga ega bo‘ladi

Aralash saylov tizimining muhim xususiyatlaridan yana biri siyosiy partiyalar fraksiyalari shakllanishi tartibidir. Bu sohadagi yangiliklarga ko‘ra, Qonunchilik palatasiga saylovda yagona saylov okrugi bo‘yicha ovoz berishda ishtirok etgan saylovchilarning kamida yetti foiz ovozini olgan siyosiy partiyalar belgilangan tartibda mandatga ega bo‘ladi.

Xususan, proporsional saylov tizimida mavjud deputatlik mandatlariga da’vogarlik qilish uchun siyosiy partiyalar qo‘lga kiritishi zarur bo‘lgan ovozlarning asosan muayyan foizga teng eng kam miqdori (o‘tish plankasi, baryeri) belgilanadi. Masalan, aralash saylov tizimi keng qo‘llanadigan xorijiy mamlakatlarda ham bunday amaliyot mavjud. Qonunchilik palatasiga saylovda yagona saylov okrugi bo‘yicha ovoz berishda ishtirok etgan saylovchilarning kamida 7 foiz ovozini olgan siyosiy partiyalar belgilangan tartibda mandatga ega bo‘ladi. Shu sababli siyosiy partiyalar har bir ovoz uchun kurashadi.

Xulosa

Saylovlardagi eng asosiy va hal qiluvchi bosqich ovoz berishni tashkil etish va o‘tkazish jarayonidir. Xulosa qilib aytganda, saylovlarda ovoz berish jamiyatdagi turli ijtimoiy guruhlar va qatlamlarning manfaatini himoya qilishga xizmat qiladi. Har bir fuqaroning ovozi qimmatli va u jamiyatning bir bo‘lagi sifatida o‘z fikrini bildirish imkoniyatiga ega.

2024-yil 27-oktabr mamlakatimiz tarixida demokratik taraqqiyotning yangi sahifalarini ochadi, ijtimoiy-siyosiy hayotimizda tarixiy ahamiyatga molik sana sifatida muhrlanib qoladi. Zero, bu yilgi saylovlar “Mening tanlovim — obod vatanim” shiori ostida bo‘lib o‘tmoqda.

SAYLOV 2024 27-OKTABR MENING TANLOVIM — OBOD VATANIM!

ERTAGA OVOZ BERISH KUNI

SAYLOV 2024 27-OKTABR

_____ (saylov okrugining raqami va nomi)
bir mandatli saylov okrugi
SAYLOV BYULLETENI

M.O‘ _____ (imzo) _____ (imzo)

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi deputatlari SAYLOVI

2024-yil 27-oktabr

Faqat bitta nomzodga ovoz berishingiz mumkin.
Yoqlab ovoz berayotgan nomzod ro‘parasida, o‘ng tomonida joylashgan bo‘sh kvadratga ✚ yoki ✔yoxud ✖belgisini qo‘ying.

- **FAMILIYASI, ismi, otasining ismi, tug‘ilgan yili,** *Siyosiy partiya nomi* ☐
- **FAMILIYASI, ismi, otasining ismi, tug‘ilgan yili,** *Siyosiy partiya nomi* ☐
- **FAMILIYASI, ismi, otasining ismi, tug‘ilgan yili,** *Siyosiy partiya nomi* ☐
- **FAMILIYASI, ismi, otasining ismi, tug‘ilgan yili,** *Siyosiy partiya nomi* ☐
- **FAMILIYASI, ismi, otasining ismi, tug‘ilgan yili,** *Siyosiy partiya nomi* ☐

DIQQAT! Bittadan ortiq kvadratga belgi qo‘yilgan yoki bitta ham kvadratga belgi qo‘yilmagan saylov byulleteni haqiqiy emas deb topiladi.

SAYLOV 2024 27-OKTABR

Yagona saylov okrugi
SAYLOV BYULLETENI

M.O‘ _____ (imzo) _____ (imzo)

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi deputatlari SAYLOVI

2024-yil 27-oktabr

Faqat bitta siyosiy partiyaga ovoz berishingiz mumkin.
Yoqlab ovoz berayotgan siyosiy partiya nomi ro‘parasida, o‘ng tomonida joylashgan bo‘sh kvadratga ✚ yoki ✔yoxud ✖belgisini qo‘ying.

- O‘ZLIDEP — **Tadbirkorlar va ishbilarmonlar harakati – O‘zbekiston Liberal demokratik partiyasi** ☐
- **O‘zbekiston “Milliy tiklanish” demokratik partiyasi** ☐
- OEP — **O‘zbekiston Ekologik partiyasi** ☐
- XDP — **O‘zbekiston Xalq demokratik partiyasi** ☐
- ADOLAT — **O‘zbekiston “Adolat” sotsial-demokratik partiyasi** ☐

DIQQAT! Bittadan ortiq kvadratga belgi qo‘yilgan yoki bitta ham kvadratga belgi qo‘yilmagan saylov byulleteni haqiqiy emas deb topiladi.

SAYLOV 2024 27-OKTABR

_____ (saylov okrugining raqami va nomi)
saylov okrugi
SAYLOV BYULLETENI

M.O‘ _____ (imzo) _____ (imzo)

Xalq deputatlari _____ viloyat (shahar) Kengashi deputatlari SAYLOVI

2024-yil 27-oktabr

Faqat bitta nomzodga ovoz berishingiz mumkin.
Yoqlab ovoz berayotgan nomzod ro‘parasida, o‘ng tomonida joylashgan bo‘sh kvadratga ✚ yoki ✔yoxud ✖belgisini qo‘ying.

- **FAMILIYASI, ismi, otasining ismi, tug‘ilgan yili,** *Siyosiy partiya nomi* ☐
- **FAMILIYASI, ismi, otasining ismi, tug‘ilgan yili,** *Siyosiy partiya nomi* ☐
- **FAMILIYASI, ismi, otasining ismi, tug‘ilgan yili,** *Siyosiy partiya nomi* ☐
- **FAMILIYASI, ismi, otasining ismi, tug‘ilgan yili,** *Siyosiy partiya nomi* ☐
- **FAMILIYASI, ismi, otasining ismi, tug‘ilgan yili,** *Siyosiy partiya nomi* ☐

DIQQAT! Bittadan ortiq kvadratga belgi qo‘yilgan yoki bitta ham kvadratga belgi qo‘yilmagan saylov byulleteni haqiqiy emas deb topiladi.

SAYLOV 2024 27-OKTABR

_____ (saylov okrugining raqami va nomi)
saylov okrugi
SAYLOV BYULLETENI

M.O‘ _____ (imzo) _____ (imzo)

Xalq deputatlari _____ tuman (shahar) Kengashi deputatlari SAYLOVI

2024-yil 27-oktabr

Faqat bitta nomzodga ovoz berishingiz mumkin.
Yoqlab ovoz berayotgan nomzod ro‘parasida, o‘ng tomonida joylashgan bo‘sh kvadratga ✚ yoki ✔yoxud ✖belgisini qo‘ying.

- **FAMILIYASI, ismi, otasining ismi, tug‘ilgan yili,** *Siyosiy partiya nomi* ☐
- **FAMILIYASI, ismi, otasining ismi, tug‘ilgan yili,** *Siyosiy partiya nomi* ☐
- **FAMILIYASI, ismi, otasining ismi, tug‘ilgan yili,** *Siyosiy partiya nomi* ☐
- **FAMILIYASI, ismi, otasining ismi, tug‘ilgan yili,** *Siyosiy partiya nomi* ☐
- **FAMILIYASI, ismi, otasining ismi, tug‘ilgan yili,** *Siyosiy partiya nomi* ☐

DIQQAT! Bittadan ortiq kvadratga belgi qo‘yilgan yoki bitta ham kvadratga belgi qo‘yilmagan saylov byulleteni haqiqiy emas deb topiladi.

Yo‘laklar faqat jamoat transportiga xizmat qilsa, odamlarning avtobuslardan foydalanishi ko‘payadi. Chunki jamoat transportini rivojlantirish, ularga yo‘llarda ustunlik berish yurtdoshlarimizning ham zaruriy talabiga aylanib bormoqda.

YANGI O‘ZBEKISTON

www.yuz.uz yuz.uznews yuz_official yuz.uz_news yuz

Bugunning gapi

O‘tgan yilning boshida poytaxtimizning Yunusobod tumani Amir Temur shohko‘chasida birinchilardan bo‘lib “A” belgi bilan ajratilgan avtobus yo‘lagi paydo bo‘lib, unda faqat jamoat transporti harakatlanishiga ruxsat berilgani bois, ishga qatnashim ancha qulaylashgani, manzilga tez, tirbandliklarsiz yetib olayotganim darhol sezilgandi. Uydan ishgacha 20 daqiqada borardim. Shaxsiy mashina olganimdan keyin vaqt oralig‘i o‘zgardi, faqat teskari tomonga. Avvalgi masofani endi yarim soat, 40 daqiqada bosib o‘ta boshladim. Qizig‘i, bu vaqt kamayish o‘rniga tobora ko‘payib boryapti.



Iroda TOSHMATOVA,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri





“A” TASMALI YO‘LLAR

BARCHA AVTOTRANSPORT VOSITALARI UCHUN EMAS

Bunga Toshkent shahri ko‘chalarida kun sayin ortayotgan va haydovchilarning asosiy muammosiga aylanib qolgan tirbandliklar sabab ekani sir emas. Oldinlari tig‘iz vaqtlar odatda ertalab va kechqurunga to‘g‘ri kelgan bo‘lsa, hozir kunning istalgan paytida, shaharning istalgan hududida tirbandlikda qolish mumkin. Chunki yurtimizda aholi bilan birga avtomobillar soni ham ortishi tezlashgan. Ma’lumotlarga ko‘ra, birgina Toshkent shahrining o‘zida ro‘yxatdan o‘tgan 760 ming avtotransport mavjud bo‘lib, ularning soni yiliga 76 mingtaga o‘smoqda. Poytaxtda avtotransport vositalari doimiy harakatlanadigan asosiy yo‘l tarmoqlari uzunligi 470 kilometr bo‘lgani holda 380-400 ming avtotransport harakatiga mo‘ljallangan. Ammo odatda bu raqam 1 millionga yetib, avtotransport harakati bir vaqtning o‘zida harakatlanish sig‘imidan 2 barobar oshib ketyapti. Bu asosiy ko‘chalarga ikki karra ko‘p yuklama tushyapti, degani. Yo‘llarda turnaqator tirbandliklar yuzaga kelishi ham shu bilan bog‘liq.

To‘g‘ri, avtomobil xarid qilish yaxshi niyat, orzu-havaslardan biri. Odamlarda mashina sotib olish imkoniyati oshib borayotgani, hatto bir xonadonda bir necha avtoulov borligi, ko‘chalarimizda xorij avtomobillari ko‘zni quvnatib yurgani yaxshi, albatta. Ammo ularning ko‘payishi hisobiga shaxsiy avtomobilda harakatlanish qiyinlashib borayotgani, tirbandliklar ortib, yaqin masofalar olisdek tuyulayotgani ham bor gap. Avtomobillardan chiqayotgan zararli tutunning ekologiyaga yetkazayotgan ta’siri esa alohida mavzu.

Shunday sharoitda jamoat transportini rivojlantirish, odamlar uchun qulay transport vositasiga aylantirish zarurligi aytilayotgani bejiz emas. Nafaqat aytilyapti, balki kerakli chora-tadbirlar ko‘rilmoqda. Boisi, har kuni o‘qishga, ishga yoki boshqa yumushlar bilan biror manzilga qatnaydigan odamlar uchun arzon, tezkor va xavfsiz transport vositasi zarur. Bu vazifani esa jamoat transportichalik biror avtoulov uddalay olmaydi. Qolaversa, shahar sharoitida jamoat transportidan foydalanish ko‘pchilikka qulay.

Ana shu qulaylikni yanada oshirish uchun keyingi yillarda ko‘chalar, yo‘llarda jamoat transportiga ustunlik berish choralari ko‘rilmoqda. Asosiy maqsad keng jamoatchilik foydalanadigan transport vositalari tirbandlikda qolmasligi, odamlar manziliga tezroq yetib olishini ta’minlashga qaratilgan. Shu bois, 2023-yildan poytaxtimizda alohida avtobus yo‘laklari tashkil etilib, “A” harfi bilan ajratila boshladi. U faqat avtobuslar harakati uchun tashkil etilib, unda harakatlanadigan yengil avtomobillarga jarimalar ham belgilandi.

— O‘tgan yilning boshida Toshkent shahrida 186,6 kilometr avtobus yo‘lagi tashkil etish belgilab olingan bo‘lsa, Prezidentimizning tegishli qarori bilan 2025-yilgacha poytaxt ko‘chalarida jamoat transporti doimiy harakatlanadigan umumiy uzunligi 475 kilometr bo‘lgan 36 ta alohida avtobus yo‘lagi paydo bo‘ladi, — deydi Transport vazirligi Jamoat transporti boshqarmasi boshlig‘i Mirakbar Ikromov. — Ayni paytda Toshkent shahrida 164 ta yangi yo‘nalish tarmog‘ida kuniga 1638 ta avtobus qatnamoqda. Tahlillarga ko‘ra, hozir poytaxtdagi mobil aholining kunlik qatnovi soni o‘rtacha 11 millionni tashkil etib, uning 2,1 millioni, ya’ni 26,3 foizi jamoat transporti (avtobus va metro) hissasiga to‘g‘ri kelyapti. Bu hali kam. Yaqin yillarda aholining ko‘p qismini jamoat transportida harakatlanishga jalb etish ko‘zda tutilgan. Buning uchun huquqiy asoslar yaratilib, aniq chora-tadbirlar ko‘rilyapti. Xususan, Prezidentimizning joriy yil 24-sentabrda qabul qilingan “Chang bo‘ronlariga qarshi kurashish va atmosfera havosi sifatini yaxshilash bo‘yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarorida Toshkent shahrida jamoat transporti ustuvorligini oshirish bo‘yicha qator takliflar nazarda tutilgan. Alohida avtobus yo‘laklarini tashkil etish orqali tezkor avtobus yo‘nalishlari (BRT) tizimi joriy qilinadi.



Qoidabuzarlar jarima to‘laydi

Avtobus harakati uchun alohida yo‘lak ajratilishi keng jamoatchilik, faollar tomonidan ijobiy kutib olinib, qo‘llab-quvvatlanyapti. Ko‘pchilik bunday yo‘llarni kengaytirish, eng asosiysi, ularda yengil avtomobillar harakatlanishini taqiqlashni qat’iy nazoratga olish tarafdori. Boisi, “A” belgili yo‘llarda harakatlanish odatdagidek davom etib, istalgan mashina erkin foydalansa, u holda alohida yo‘llarni belgilab, maxsus belgilarni chizib chiqish ortiqcha ovoragarchilikdan boshqa narsa bo‘lmaydi. Chunki jamoat transporti yana avvalgidek tirbandlikda qoladi va uning alohida yo‘lda harakatlanishidan hech qanday ma’no yo‘q.

Dastlab alohida avtobus yo‘laklari ochilib, nazorat kuchaytirilgach, jarayon tartibga tushib oldi. Hatto Toshkent shahri bo‘ylab avtobus yo‘laklarida harakatlanadigan boshqa transport vositalarining qoidabuzarliklarini qayd etib, jarimaga tortadigan 50 dan ziyod foto va videokamera ham o‘rnatildi. Ammo oradan bir yil o‘tsa hamki, bu kameralar amaliyotda to‘liq ishlamadi va buni tushunib yetgan haydovchilar yana bemalol avtobus yo‘laklarida harakatlana boshladi. Mutasaddilar esa kuzatuv kameralari ishlamagani sababini foydalanishdagi murakkabliklar test rejimidan o‘ta olmagani, qurilmalar yangisiga almashtirilishi bilan izohlagan. Ayni paytda Toshkent shahri bo‘ylab o‘rnatilgan foto va videokameralar “A” tasmali yo‘laklarda harakatlangan, belgilanmagan joyda to‘xtagan va to‘xtab turgan mashinalarni qayd etmoqda.

Ya’ni bu masala jiddiy nazoratga olinib, tartib o‘rnatilyapti. Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 10-oktabrdagi tegishli qarori bilan bundan ikki yil oldingi qarorga qo‘shimcha kiritilib, avtobus yo‘laklarida boshqa transport harakatlanishi ustidan nazorat kuchaytirildi. Unga ko‘ra, jamoat transporti uchun belgilangan “A” belgili alohida tasmasi bor yo‘llarda boshqa avtomobillar yurishi taqiqlandi.

— Bundan tezkor va maxsus xizmatlar mashinalari mustasno, — deydi Mirakbar Ikromov. — Kiritilgan o‘zgartirishga ko‘ra, maxsus yo‘laklardan yo‘nalishli jamoat transporti vositalari harakatlanishi mumkin, boshqa avtomobillarga esa taqiqlanadi. Avtomobillar yon ko‘chalarga kirish yoki undan chiqish uchun kirish-chiqish joyidan 50 metr masofada uzuq-uzuq chiziqli joygacha yoxud yaqin masofadagi uzuq-uzuq chiziqli joygacha ushbu yo‘ldan harakatlanishi mumkin. Bunda transport vositasi mazkur yo‘lakda harakatlanib kelayotgan yo‘nalishli transport vositasi harakatiga to‘sqinlik qilmasligi va unga yo‘l bergandan so‘ng yondosh hududga kirish yoki chiqish harakatini amalga oshirishga ruxsat etilgan.



Ammo taqiqlashning o‘zi bilan ish bitmaydi, qoidaga amal qilmaganlar jarimaga tortiladi. Amaldagi qonunchilikka ko‘ra, haydovchilarning transport vositalarini piyodalar yo‘lkalaridan yurgizishi, yo‘l belgilari va yo‘l harakatining boshqa qoidalari talablariga rioya etmasligi BHMning ikkidan bir qismi, ya’ni 187 ming 500 so‘m miqdorida jarimaga sabab bo‘ladi. Agar avtomobil o‘sha yo‘lakda to‘xtasa, to‘xtaganda ham bu holat yo‘lovchini tushirish yoki chiqarish bilan bog‘liq bo‘lmasa, unga BHM miqdorining 2 baravari — 750 ming so‘m miqdorida jarima jazosi beriladi.

Yo‘lda tirbandlikda turganingda ba’zan tez yordam yoki o‘t o‘chirish mashinalarining ogohlantiruv signallari eshitilib qoladi. Kimningdir hayotini saqlab qolish yoki baxtsiz hodisani bartaraf etishga oshiqayotgan insonlar tirbandlikdan yo‘l topib, chiqib ketishga urinadi. Ammo turnaqator tizilgan mashinalar orasida qani biror joy bo‘lsa. Shunday vaqtda aynan ularning ham erkin, tez harakatlanishi uchun ajratilgan avtobus yo‘laklari yengil avtomashinalar bilan to‘la ekani odamning g‘ashini keltiradi. Qoidaga amal qilmay, jamoat transporti va maxsus xizmat mashinalari harakatiga xalal berganlar jarima to‘lashi shu jihatdan adolatli yechimdir.

Yo‘laklar faqat jamoat transportiga xizmat qilsa, odamlarning avtobuslardan foydalanishi ko‘payadi. Chunki jamoat transportini rivojlantirish, ularga yo‘llarda ustunlik berish yurtdoshlarimizning ham zaruriy talabiga aylanib bormoqda. Ma’lumotlarga ko‘ra, Toshkent shahrida aholi soni yiliga o‘rtacha 100 mingtaga oshmoqda. Poytaxtdagi 5 milliondan ortiq aholining 3 millioni hududda doimiy istiqomat qiluvchilardir. Qolaversa, shahrimizga kelib-ketuvchi mehmonlar ham ko‘pchilikni tashkil etadi. Odamlarning aksariyati doimiy harakatlanishda jamoat transportidan foydalanishni afzal ko‘radi. Aslida, dunyoning ko‘plab davlatlarida shunday, aholi uchun kundalik qatnovda shaxsiy avtomobildan ko‘ra jamoat transporti qulay hisoblanadi.

Mutaxassislarning aytishicha, Toshkent shahrida bitta yengil avtotransport vositasida bir kunda o‘rtacha 4,8 nafar yo‘lovchi tashilsa, bitta avtobusda bu ko‘rsatkich o‘rtacha 700 yo‘lovchini tashkil etmoqda. Bu avtobusning yengil avtotransportga nisbatan 145 barobar samarador ekanini ko‘rsatadi. Qolaversa, shaharda tirbandlikning oldini olish, aholining kunlik harakatlanishga bo‘lgan ehtiyojini qondirib, yo‘lga sarflanadigan vaqt va moddiy resurslar samaradorligini oshirish uchun ham sifatli, qulay, xavfsiz va jozibador jamoat transporti tizimini joriy etish lozim.

— Har yili xorijdan avtobuslar olib kelinyapti, — deydi Mirakbar Ikromov. — Masalan, 2022-yilda Toshkent shahri uchun o‘rta sig‘imli 200 dona va katta sig‘imli 190 dona avtobus va ilk bor 20 dona zamonaviy elektrobus xarid qilingan edi. 2023-yilda esa shahar jamoat transporti harakat tarkibini mukammal yangilash loyihalari natijasida qo‘shimcha 1000 dona avtobus keltirildi. Ularning 302 tasi elektrobus bo‘lib, asta-sekin shaharda shu kabi ekologik transport vositalariga o‘tish ko‘zda tutilgan.

Umuman, shahrimizda so‘nggi ikki yilda avtobuslar soni 2 barobar, harakat tarkibining o‘rtacha sig‘imi esa 74 foiz oshdi. Ularning oraliq intervali 2-3 karra qisqarib, hozir 8-10 daqiqani tashkil etyapti. Kunlik yo‘lovchi oqimi 1 millionga yetdi. Poytaxtga kirib keladigan aholining shahar markaziga yetib borish vaqti esa 45 daqiqadan 30 daqiqagacha qisqardi. Jamoat transporti harakati uchun tashkil etilayotgan alohida ajratilgan yo‘laklar bu ko‘rsatkichlarni yanada yaxshilaydi. Har holda ko‘pchilik ijobiy o‘zgarishlarni allaqachon amaliyotda sezmoqda.

Yangicha yondashuvlar

KAMBAG‘AL EDI, MULKDORGA AYLANDI





Sho‘rchi tumanidagi Do‘stlik mahallasida yashovchi Xolmirza Qosimov hayotining bir qismini xorijda ishlash bilan o‘tkazdi. Payvandchilik qildi. Baland-baland imoratlar qurilishida qatnashdi. Bu imoratlar o‘zga xalq uchun ekanidan ko‘pincha ezildi. Mamlakatimizdagi yangilanishlar uning hayotini ham keskin o‘zgartirdi. Endi u oilasiga mo‘may daromad keltirish bilan birga mahalladoshlarining ish bilan ta’minlanishiga hissa qo‘shyapti.

Xolmirza Qosimov 2022-yilda “Har bir oila — tadbirkor” davlat dasturi doirasida imtiyozli kredit oldi. Shu mablag‘ evaziga 10 sotix tomorqada issiqxona qurdi. Dastlab 3 yil qulupnay yetishtirdi. Ekin orasida bodring va pomidor ham parvarishladi. Tinib-tinchimas tomorqa egasi ko‘chatchilikka ham qo‘l urdi. Mehnati ortidan joriy yilda u O‘zbekiston fermer, dehqon xo‘jaliklari va tomorqa yer egalari kengashining “Ilg‘or fermer”, “Mehnatkash dehqon” va “Namunali tomorqachi” ko‘krak nishonlariga munosib topildi. Shu bilan cheklanib qolgani yo‘q. Bugun tumanda osmonga bo‘ylayotgan imoratlar bunyod etilishida ham payvandchi sifatida ishtirok etyapti.

Sho‘rchi tumanidagi Do‘stlik mahallasining asosiy drayveri esa dehqonchilik qilib belgilandi.

— Mahallamizda joriy yilning o‘zida deyarli har bir xonadonda issiqxona tashkil etildi. Ularda asosan qulupnay, karam, limon va boshqa ekinlar yetishtirilmoqda. Odamlarga tomorqadan samarali foydalanish va undan daromad olishni o‘rgatish orqali ham kambag‘allikni qisqartirish, ham oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlash mumkin. Yurtdoshlarimizdagi tadbirkorlik kayfiyati Sho‘rchidagi mahallalarda faoliyat yuritayotgan hokim yordamchilarini ham yangi tashabbuslar sari undamoqda, — deydi “Do‘stlik” MFYdagi hokim yordamchisi Jamshid Bo‘riyev.

Bir-birini to‘ldiradigan mexanizmning shakllanishi evaziga aholining bugunidan roziligi, ertangi kunga ishonchi ortib bormoqda. Shu yil 11-sentabrda kambag‘allikni qisqartirish ishlarini yangi sifat bosqichiga olib chiqish masalalariga bag‘ishlab o‘tkazilgan videoselektor yig‘ilishida mamlakat bo‘yicha 260 ming gektar yer 800 ming fuqaro, avvalo, yoshlarga dehqonchilik qilish uchun daromad keltiruvchi aktiv sifatida tarqatilgani ta’kidlandi. Shuningdek, oilalarni kambag‘allikdan chiqarishda shaxsiy tomorqalardan oqilona foydalanib, yerdan olinadigan daromad miqdorini ko‘paytirish kerakligi alohida qayd etildi.

Shu kunlarda mazkur topshiriq yuzasidan Surxondaryo viloyatida ishlar qizg‘in davom etayotir. Vohada jami 482 ming 938 ta xonadonda dehqonchilik qilinadigan 49,5 ming gektar tomorqa mavjud. 2024-yilning erta bahorida 42,3 ming gektarga ertaki, 45 ming gektarga takroriy va 44,2 ming gektarga to‘qsonbosti ekin ekish rejalashtirilgandi. Shu kungacha ertaki va takroriy ekinlar to‘liq ekildi.

Hududning tuproq va iqlim sharoiti, shu yerlarda istiqomat qiluvchilarning dehqonchilik tajribasidan kelib chiqib, “Bir mahalla — bir mahsulot” tamoyili asosida Surxondaryodagi 572 ta mahalla muayyan turdagi qishloq xo‘jaligi mahsulotini yetishtirishga ixtisoslashtirilgan. Jumladan, sabzavotchilikka 318 ta, kartoshkachilikka 76 ta, polizchilikka 13 ta, bog‘dorchilikka 91 ta, rezavor mevalar yetishtirishga 10 ta va chorvachilikka 64 ta mahalla tanlab olingan.

Vohada tomorqachilik infratuzilmasini rivojlantirish uchun Fermer, dehqon xo‘jaliklari va tomorqa yer egalarini qo‘llab-quvvatlash jamg‘armasi hisobidan jami 19,1 milliard so‘m imtiyozli kredit ajratildi. Aholi tomorqasida yetishtirilgan mahsulotlarni saqlash uchun 69 ta — jami 4075 tonna sig‘imli sovitkichli omborlar qurildi. Jamg‘arma mablag‘lari hisobidan tijorat banklari orqali 67 ta loyiha uchun imtiyozli kredit berildi. Issiqxonalarni ko‘paytirish, yiliga 2-3-marta hosil olish uchun 4,1 ming xonadonda namunaviy, 2,4 ming xonadonda ixcham issiqxonalar qurildi. Jumladan, Sho‘rchi tumanidagi 503 ta xonadonga tegishli jami 11 gektar yerda kichik issiqxonalar barpo qilindi.

Maftuna Ro‘zimatova Sho‘rchi tumanining Ezgulik mahallasida yashaydi. U kelinlik vazifasi, farzand tarbiyasidan ortib, tomorqadan ham samarali foydalanmoqda. Qaynana-qaynatasi ham dehqonchilik borasida Maftunaga yaqindan ko‘maklashmoqda.

— Tomorqamizda yetishtirgan mahsulotimizni sotib, daromad olamiz, — deydi Maftuna Ro‘zimatova. — To‘g‘risi, hech kimdan qolishmaydigan ishimiz, daromadimiz bor. Tomorqamizga ekilgan karamdan ham yaxshi foyda olamiz. 6 sotix yerda qurilgan issiqxonamizdagi limonlar ham allaqachon hosilga kirgan.

Tumandagi Ozod mahallasida yashovchi Elmurod Xo‘jamiyorovning ham 40 sotix yeri bor. Tomorqaga munosabat o‘zgargani ortidan u ham shu kunlarda 600 tupga yaqin pavlovniya ko‘chatini parvarishlamoqda.

Pavlovniya ko‘plab noyob xususiyatlarga ega: yog‘ochi yengil va zichligi yuqori. Daraxtning suvga qarshiligi bor. Shu bois, suvga solsangiz, bo‘kib qolmaydi, tez ho‘l bo‘lib, chirib ketmaydi. Undan asosan qayiq, musiqa asboblari va mebellar yasalishi sababi ham shundan. Yana bir afzalligi, pavlovniya yog‘ochi juda mustahkam bo‘lgani bois, yuqori haroratga chidamli. Boshqa daraxtlar 250-300 darajada yonsa, u 450 daraja issiqlikkacha dosh beradi.

O‘simliklar karantini va himoyasi tuman bo‘limi inspektorlari hududdagi tuproqning agrokimyoviy tahlili, qishloq xo‘jaligiga yetkazib beriladigan barcha turdagi mineral hamda mikrobiologik o‘g‘itlar sifatini nazorat qilish, qishloq xo‘jaligi mahsulotlari tarkibidagi pestitsid, nitrat va og‘ir metall tuzlar qoldiqlarini tekshirish maqsadida dala sharoitida tahlillar o‘tkazmoqda.

— Zararli organizmlarga qarshi kurashning uyg‘unlashgan samarali usullarini belgilash, ijrosini nazorat qilish, monitoring olib borish, iqtisodiy zarar yetkazishi mumkin bo‘lgan zararkunandalarning hududga kirib kelishi va tarqalishining oldini olish borasida real ishlar bajarilyapti. “Agroko‘makchi” mobil ilovasi orqali esa o‘simliklar himoyasi, bu sohadagi xizmatlar, foydali ma’lumotlar, eksport bo‘yicha maslahatlar berib borilmoqda, — deydi tuman fermer, dehqon xo‘jaliklari va tomorqa yer egalari kengashi raisi Ibrohim O‘sarov.

Sho‘rchi tumanida tomorqa yer egalari va dehqon xo‘jaligi maydonlarida dehqonchilik madaniyatini yanada rivojlantirish, qolaversa, har yili 2-3-marta hosil olishga katta e’tibor qaratilmoqda.

Sarvar TO‘RAYEV,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

YANGI O‘ZBEKISTON

www.yuz.uz yuz.uznews yuz_official yuz.uz_news yuz

Ta’lim va tarbiya qo‘shqanotdir. Chunki ta’lim tarbiyasiz to‘kis va mukammal bo‘la olmaydi. Ayni shu ma’noda yangi o‘quv yurtining Tarbiya pedagogikasi milliy instituti deb qayta nomlanishi chuqur mazmun va mohiyatga ega.

2024-yil 26-oktabr, 217-son

Taraqqiyot odimlari



BOLALAR REANIMATSIYASI

Bunda ustunlik zamonaviy texnologiya va salohiyatli kadrlarga bog‘liq



Bolalar reanimatsiyasi bo‘limi — murakkab jarrohlik amaliyotidan so‘ng go‘dak ilk soatlari, kunlari va ba’zida esa oylab vaqtini o‘tkazadigan joy. Bu yerda mehnat qilayotganlar bemor hayoti uchun kurash olib boradi. Hatto bolalar bilan ishlash maroqli degan o‘yda yurgan hamshiralar ham fursat o‘tib bu ishning yuki va mas’uliyatiga guvoh bo‘lgan. Azob tortayotgan sinchalakdek jussalar yonida parvona bo‘lib, parvarish qilarkan, ularga bog‘lanib qolganini sezmay ham qoladi. Bu yerda o‘z bolasi yotgandek qayg‘uradi.

Izlagan imkon topadi

Buxoro viloyatidagi bolalar reanimatsiyasi salmoqli taraqqiyot yo‘lini bosib o‘tgan. 1979-yili u olti o‘rinli qilib o‘sha paytdagi viloyat bolalar shifoxonasida tashkil etilgan. Dastlab mazkur bo‘lim hamda chaqaloqlarga mo‘ljallangan intensiv terapiya bo‘limi muassasa tasarrufidagi rekonstruksiya qilingan klub binosida faoliyat yuritgan. Yillar o‘tgani sari bu yo‘nalishdagi imkoniyatlar tobora kengayib, ortib borayotgan talab va ehtiyojga javob berolmay qoldi. Sohadagi o‘zgarishlar bilan dadil qadam tashlana boshladi. Yangi loyiha asosida o‘n o‘ringa mo‘ljallangan anesteziologiya va reanimatsiya bo‘limi hamda operatsiya bloki uchun alohida bino qurilib, foydalanishga topshirildi.

Albatta, o‘tgan yillarda yaratilgan bu shart-sharoitlar o‘z mevasini berib, diagnostika va davolashda sezilarli natijalarga erishilgan esada, somatik va xirurgik yo‘nalishdagi bemorlar bitta bo‘limda davolanishga majbur bo‘layotgani soha mutaxassislari oldida yechimini kutayotgan tugun bo‘lib qolayotgandi. 2016-yilda bu muammoga yechim izlandi. Biroq masala mablag‘ga borib taqaldi-yu, reja rejaligicha qolib ketdi.

2024-yilga kelib, Buxoro viloyati bolalar ko‘p tarmoqli tibbiyot markazida somatik bemorlarni xirurgik kasallardan alohidalash loyihasi ustida ishlar ijrosiga jiddiy kirishildi. Dastlab bo‘lim xodimlari uchun munosib sharoit yaratish maqsadida shu qavatda mavjud bo‘lgan va foydalanilmay kelinayotgan bir necha xonadan iborat joy loyihaga kiritilib, ikki oyda ta’mirdan chiqarildi. Bu yerdagi eski sterilizatsiya bo‘limi yuqori qavatga ko‘chirildi. Natijada reanimatsiya holatidagi, operatsiyadan chiqqan bemorlarga to‘liq xizmat ko‘rsata oladigan, shuningdek, barcha talabga javob beradigan, yangi qiyofadagi bo‘lim foydalanishga topshirildi.

Ahamiyatli jihati shundaki, binoni demontaj qilish, qayta qurish, ta’mirlash va tibbiy jihozlar bilan ta’minlash ishlari homiylar va saxovatpeshalar mablag‘i hisobidan amalga oshirildi. Jarayonga taxminan 400 million so‘mdan ortiq mablag‘ yo‘naltirilgan.

Chaqaloqlar va bolalarni qo‘shib hisoblaganda ayni paytda reanimatsiya bo‘limi 12 o‘rinda faol ishlamoqda. Shundan 5 tasi xirurgik bemorlarga mo‘ljallangan. Bo‘limda jami 80 nafardan ziyod xodim ishlayotir, 10 dan ortig‘i shifokorlar.

Yutuqlar salmoqli

Markazning joriy yilda erishgan muhim yutuqlaridan biri yurakda ochiq operatsiyalar muvaffaqiyatli bajarilganidir. Bu amaliyotlar poytaxtdan kelgan tajribali mutaxassislar bilan hamkorlikda qilindi. Vaholanki, bolalarda uchraydigan tug‘ma yurak nuqsonini ochiq usulda operatsiya qilish amaliyoti shu paytga qadar rivojlangan mamlakatlardagina amalga oshirib kelinayotgan edi.



Hamzabek TURDIYEV,
O‘zbekiston Jurnalistlar uyushmasi a’zosi

Yutuqlar qo‘lga kiritilar ekan, soha mutaxassislari oldiga yangi maqsad va marralar chiqaveradi. Galdagi vazifa perfuziologiya yo‘nalishini rivojlantirish va shu yo‘nalish bo‘yicha kadrlar tayyorlashdir. Bu borada ilk qadamlar qo‘yilgan va kelgusi oydan tibbiyot



xodimlari malaka oshirish uchun xorijdagi yetakchi klinikalarga yuboriladi. 2025-yildan boshlab shu yo‘nalishda bo‘lim ochilishi va faoliyat yuritishi rejalashtirilmoqda.

— Bo‘limimiz 18 yoshgacha bo‘lganlarga tibbiy yordam ko‘rsatadi. Ko‘plab xastaliklar 24 soatda tashxislanib, operativ jarayon amalga oshiriladi. Chillasi chiqqan go‘daklar va undan kattalar barcha turdagi somatik va xirurgik kasalliklar bo‘yicha davolanadi. Biz kardioreanimatologik, gematologik, nevrologik xastaliklar, buyrak yetishmovchiligi, torakal abdominal xirurgiya, neyroxirurgiya, yuz-jag‘ jarrohligi yo‘nalishida bemorlarga qo‘limizdan kelgan yordamni ko‘rsatyapmiz, — deydi anesteziologiya va reanimatsiya bo‘limi mudiri Ravshan Avezov.

Kichik amaliyotlarni hisoblamaganda yuqori texnologik operatsiyalar soni va sifati o‘tgan yildagiga qaraganda mingtaga oshgan. Bu 1800 tadan ziyodni tashkil etadi. Ushbu amaliyotlarning 50 foizga yaqini yuz-jag‘ jarrohligi va otorinolaringologiya yo‘nalishida amalga oshirilgan. Qolgani rejali va yiringli xirurgiya, neyroxirurgiya, ortopediya va boshqa xirurgik yo‘nalishdagi bo‘limlar hissasiga to‘g‘ri kelgan. Bu bemorlar reanimatsiya bo‘limida 1 soatdan 6-7 kungacha kerakli muolajani olib, yo‘nalishlar bo‘yicha bo‘limlarga ko‘chirilgan.

Bugungi reanimatsiyaning kechagidan farqi

Uzoqqa bormaylik. 1996-yilda bo‘limda Ro-6 rusumli bittagina narkoz beruvchi apparat bo‘lgan. Juda sodda va ma’nan eskirgan bu apparatning bemorga foydasidan zarari ko‘proq tekkanini tibbiyot xodimlari bilsa ham boshqa muqobili yo‘qligi bois, mavjud imkoniyatdan foydalanishga majbur edi. Bino esa reanimatsiya uchun maxsus qurilgan va jihozlangan bo‘lmagan. Xodimlar moslashtirilgan inshootda faoliyat yuritgan. Bemorlarni kislorod bilan ta’minlash ham talab darajasida emasdi. Og‘ir kislorod ballonlarini tibbiyot xodimlari sudrab yurardi.

Bugun kislorod stansiyalari joriy etilgani, eng ilg‘or firmalarning sun’iy nafas berish apparatlari ishlab chiqarilgani zamonaviy reanimatsiya imkoniyatlarini bir necha karra oshirdi. Jumladan, tibbiyoti ilg‘or mamlakatlar foydalanayotgan Germaniyaning “Fabius plyus” narkoz apparatlari bu yerda ham bemorlar joniga oro kirmoqda. Monitorlar va o‘pkaning sun’iy ventilyatsiyasi apparati (IVL) ham kechagisidan tubdan farq qiladi. Elektr so‘rg‘ichlardan tortib, dozatorlargacha barcha uskuna bugungi reanimatsiyaga katta ustunlik berayotir.

Ilgari bemorning holati klinik o‘rganilgan. Hozir laboratoriyadan boshlab kunlik monitor yordamida bir sutka davomida bemorda kuzatilgan o‘zgarishlar to‘g‘risidagi ma’lumot olinib, operativ davo choralari belgilanyapti. Bu esa davolanish muddatini qisqartirdi, bemorlarning tuzalishini tezlashtirdi va dori-darmonga ortiqcha ehtiyojni kamaytirdi.

Endi hamshiralar ham xorijga boradi

Reanimatsion bemorlarni parvarishlashda hamshiralarning o‘rni muhim. Bunda katta tajriba, puxta bilim, tez ishlash, nihoyatda mustahkam iroda, har bir bemorga individual yondashuv, xuddi yaqinidek ko‘rib, parvarish qilish talab etiladi. Hamshira ishiga taalluqli vazifalarni bilishi va ularga amal qilishi, har qanday shoshilinch holatda kasallik sabablari, belgilarni differensial baholash, shoshilinch yordam choralarini bevosita o‘zi yoki vrach bilan hamkorlikda o‘tkaza olishi kerak. Zamonaviy bilim va ko‘nikmalarni egallagan holda bo‘limda ishlatiladigan barcha tibbiy jihoz, apparaturalar bilan ishlash ko‘nikmasini egallashi shart.

Shu paytgacha xorijga malaka oshirish uchun faqat shifokorlar jalb etilgan bo‘lsa, endi hamshiralarni ham rivojlangan davlatlardagi eng ilg‘or klinikalarga yuborish va ko‘nikmasini oshirishga ustuvor vazifa sifatida qaralmoqda. Maqsad bolalar reanimatsiyasini ham texnologik, ham kadrlar salohiyati jihatidan jahon standartlariga javob bera oladigan pog‘onaga olib chiqishdir.

Nuqtayi nazar



Yurtimizda ta’lim sohasi qator yo‘nalish va omillar, xususan, ta’lim va tarbiyaga zamonaviy metodikalarni joriy etish, uning saviyasini xorijiy va milliy tajribalar asosida xalqaro andazalar darajasiga ko‘tarish hamda soha vakillarini moddiy rag‘batlantirish asosida keng isloh qilinmoqda.

TARBIYA – TA’LIMning BIR QANOTI

Xolboy IBRAGIMOV,
Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi milliy instituti direktori, pedagogika fanlari doktori, akademik



Bu borada Prezidentimizning joriy yil 21-iyundagi “Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi milliy institutini tashkil etish to‘g‘risida”gi qarori muhim ahamiyatga ega bo‘ldi. Hujjatga muvofiq, Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligining Qori Niyoziy nomidagi O‘zbekiston pedagogika fanlari ilmiy-tadqiqot instituti negizida butkul yangicha asosda Tarbiya pedagogikasi milliy instituti tashkil etildi.

Ta’lim va tarbiya qo‘shqanotdir. Chunki ta’lim tarbiyasiz to‘kis va mukammal bo‘la olmaydi. Ayni shu ma’noda yangi o‘quv yurtining Tarbiya pedagogikasi milliy instituti deb qayta nomlanishi chuqur mazmun va mohiyatga ega.

Qarorga muvofiq, milliy institut zimmasiga bugungi kun talablaridan kelib chiqqan holda yoshlar tarbiyasi sohasida qo‘llaniladigan ilmiy-metodik ta’minotni amalga oshirish, buyuk allomalarimiz, xususan, jadidlarning mazkur yo‘nalishdagi qarashlarini ilmiy tadqiq etish va ana shu asosda zamonaviy metodikalar ishlab chiqish kabi vazifalar yuklatildi. Shuningdek, o‘quvchilar tarbiyasida mahalla va ota-onalar o‘rtasidagi hamkorlikni yanada mustahkamlash, bu borada ota-ona va o‘qituvchilar uchun o‘quv, ommabop adabiyotlar yaratishni tizimli yo‘lga qo‘yish kabi qator maqsad va yo‘nalishlar ko‘rsatib berildi.

> **Yana bir muhim yangilik shundan iboratki, 2025/2026-o‘quv yilidan boshlab umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida tajriba-sinov tariqasida bosqichma-bosqich jahonda tan olingan ijtimoiy-emotsional ta’lim (Social and Emotional Learning – SEL) metodikalarini joriy qilish nazarda tutilgan.**



> **Maktabgacha va umumiy o‘rta ta’lim tashkilotlari tarbiyalanuvchi va o‘quvchilari uchun milliy tarbiya yo‘nalishida turkum adabiyotlar nashr etiladi. Tarbiya yo‘nalishida institut tomonidan amalga oshiriladigan yangi loyihalarga xorijiy ekspertlar, davlat va nodavlat tashkilotlar, oliy ta’lim muassasalari va jamoatchilik institutlari mutaxassislari hamda olimlari jalb etiladi.**

Yana bir muhim yangilik shundan iboratki, 2025/2026-o‘quv yilidan boshlab umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida tajriba-sinov tariqasida bosqichma-bosqich jahonda tan olingan ijtimoiy-emotsional ta’lim (Social and Emotional Learning — SEL) metodikalarini joriy qilish nazarda tutilgan.

Qarorda ijtimoiy-emotsional ta’lim metodikalarini joriy qilish mexanizmlari ham belgilab berilgan. Bu jarayonda umumiy o‘rta ta’lim muassasalari o‘quvchilari o‘z-o‘zini anglash, o‘z-o‘zini boshqarish, ijtimoiy xabardorlik, tengdoshlari bilan munosabatlarni shakllantirish va mas’uliyatli qaror qabul qilish kabi 5 ta ijtimoiy-emotsional kompetensiyaga o‘rgatiladi. Ushbu jarayonga ota-onalar va jamoatchilik vakillari ham keng jalb qilinadi. Bundan tashqari, ijtimoiy-emotsional ta’lim metodikalari umumiy o‘rta ta’lim hamda pedagog kadrlar malakasini oshirish va qayta tayyorlash dasturlariga kiritiladi. Bu jarayonda, o‘z navbatida, institutimiz olimlari ham bevosita ishtirok etadi.

Ijtimoiy-emotsional ta’lim metodikalarini amaliyotga tatbiq etish bosqichma-bosqich amalga oshiriladi. Dastlab bir necha umumiy o‘rta ta’lim muassasasi tajriba-sinov tariqasida tanlab olinadi. Institutning malakali xodimlari, xorijiy mutaxassislar va pedagog kadrlardan iborat bo‘lgan trenerlar guruhlari shakllantiriladi. Bu metodikalarni joriy etish jarayonlari institut tomonidan doimiy monitoring qilib boriladi. Erishilgan natijalar tahlil etiladi, aniqlangan kamchiliklarni bartaraf qilish bo‘yicha zarur choralar ko‘riladi.

Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi bilan birgalikda Tarbiya sohasidagi ilmiy tadqiqotlarni muvofiqlashtiruvchi respublika kengashi tashkil etiladi. Qarorda belgilanganidek, institutning ilmiy tadqiqot yo‘nalishlari endi butkul yangicha asosda shakllantiriladi. Bunda asosiy e’tibor tarbiya sohasidagi mavjud muammolarga qaratiladi.

Institut yetakchi xorijiy universitet va ilmiy markazlar bilan tarbiya metodikalarini ishlab chiqish bo‘yicha hamkorlik o‘rnatadi. Ular bilan birgalikda qo‘shma tadqiqotlar o‘tkazadi.

Bundan tashqari, maktabgacha va umumiy o‘rta ta’lim tashkilotlari tarbiyalanuvchi va o‘quvchilari uchun milliy tarbiya yo‘nalishida turkum adabiyotlar nashr etiladi. Tarbiya yo‘nalishida institut tomonidan amalga oshiriladigan yangi loyihalarga xorijiy ekspertlar, davlat va nodavlat tashkilotlar, oliy ta’lim muassasalari va jamoatchilik institutlari mutaxassislari hamda olimlari jalb etiladi.

Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi milliy instituti Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi, Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi, Yoshlar ishlari agentligi, O‘zbekiston mahallalari uyushmasi hamda Milliy gvardiya bilan birgalikda joriy o‘quv yilidan boshlab umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida “Farzand tarbiyasida ota-onaning mas’uliyati” mavzusida tarbiya haftaliklari o‘tkazish yo‘lga qo‘yildi. Shuningdek, ota-onalarning farzand tarbiyasi borasidagi bilimini oshirishga qaratilgan “Namunali ota-onalar maktabi” loyihasi hamda milliy tarbiyaning hududiy an’analarini o‘rganish, tiklash va zamonaviy ma’naviy-axloqiy tarbiya tizimiga joriy qilishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlarni amalga oshiradi.

Joriy yilning 1-dekabriga qadar o‘quvchilarda “huquqbuzarlikka qarshi immunitet”ni shakllantirishda “maktab — ota-ona — mahalla” hamkorligi zanjirini yaratish bo‘yicha ilmiy asoslangan o‘quv va ommabop uslubiy tavsiyalar ishlab chiqiladi. Ota-onalarning farzand tarbiyasiga oid dunyoqarashini kengaytirishga xizmat qiladigan adabiyotlar xalqchil tilda bo‘lishi nazarda tutilgan.

Shu yil so‘ngida “Tarbiya — shaxs madaniy-ma’naviy kamolotining mezoni” mavzusida xalqaro forum o‘tkazish belgilangan.

Prezidentimiz qarorida zamonaviy axborot vositalaridan samarali foydalanish maqsadida 2025-yil yakuniga qadar ota-onalar, o‘qituvchilar va o‘quvchilar uchun yoshlar tarbiyasiga oid raqamli kontentlarni joylashtirish maqsadida milliytarbiya.uz elektron platformasi va uning mobil versiyasini ishlab chiqish hamda zamonaviy va qiziqarli kontentlar bilan to‘ldirish vazifasi yuklatilgan. Shuningdek, institutning metodik tavsiyalari asosida yoshlar ta’lim-tarbiyasiga bag‘ishlangan podkast, videokontentlar yaratish va ommaviy axborot vositalari orqali yoritish ishlarini tizimli tashkil etish belgilangan.

Institut huzurida “Tarbiya metodikalari” ilmiy-ommabop jurnali tashkil etish hamda ko‘p funksional bosmaxona ochish ham nazarda tutilgan. Bu esa, o‘z navbatida, tarbiya pedagogikasi borasidagi tajribalarni keng targ‘ib qilish, ommalashtirish, qo‘llanmalarni ko‘p nusxada chop etish va tarqatilishiga imkoniyat yaratadi.

O‘zbekiston o‘z oldiga keng ko‘lamli maqsad va vazifalar qo‘ygan. Ularni to‘la-to‘kis amalga oshirish kelgusi avlodlarimiz olayotgan ta’lim va tarbiyaga bevosita bog‘liq. Bilimli va tarbiyali yoshlar mamlakatimiz kelajagi, oldimizga qo‘yilgan ulug‘vor maqsad hamda vazifalarimiz ro‘yobga oshishining mustahkam kafolati sanaladi. Bugungi kunda butkul yangicha asosda tashkil etilgan va shakllanayotgan Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi milliy instituti ana shu jarayonga munosib hissasini qo‘shishga harakat qilmoqda. Ta’lim va tarbiyaning ham zamonaviy, ham milliy an’ana va qadriyatlarimizga asoslangan yangi metodikalarini ishlab chiqadi hamda amaliyotga tatbiq etadi.


2024-yil 26-oktabr, 217-son

Xalq o‘yinlari bizga asrlar osha meros bo‘lib kelmoqda. Ular o‘ziga xos qadriyat sifatida ajdodlardan avlodlarga o‘tib kelgan. Bu o‘yinlar yoshlar qalbida vatanga muhabbat tuyg‘usi qaror topishida, milliy ruh shakllanib, xalqimizning an’ana va urf-odatlarini e’zozlash hissi shakllanishida asos vazifasini o‘tagan.

YANGI O‘ZBEKISTON

www.yuz.uz yuz.uznews yuz_official yuz.uz_news yuz

MILLIY O‘YINLARNI kompyuter o‘yinlari safiga QO‘SHISH KERAK



Shunda biz faqat iste’molchi bo‘lib qolmaymiz

Sardor TOLLIBOYEV,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri



Davr kishisi zamona zayliga tobe deyishadi. Texnik taraqqiyot sabab turli gadjetlar inson hayotining ajralmas qismiga aylandi. U nafaqat inson mehnatini yengillashtirdi, balki uning ongu shuurini o‘zida tashiyotgan g‘oyalar bilan to‘yintirmoqda. Yaqinda bir tanishim farzandi bilan o‘rtasida kechgan muloqotni aytib berdi: “Dam olish kuni edi. Hovli etagida o‘ynab yurgan o‘g‘lim bir muddat devor burchagiga tikilib, meni yoniga chaqirdi. Borsam, devordagi o‘rgimchakni ko‘rsatib, “U meni chaqsin”, deydi. Uning gapidan bir oz dovdirab qoldim. Keyin surishtirsam, kinodagi kabi super qahramon bo‘lmoqchi ekan”.

Bolaning ongi oq qog‘oz kabi toza bo‘ladi. Ko‘rgan-kechirgan narsalari uning ruhiy holatiga, tafakkuriga ta’sir qiladi. Bugun san’atdan ko‘ra mafkura quroliga aylangan mediamahsulotlarni tomosha qilishga mo‘ljallangan texnikaning bir necha turi mavjud. Ularda uzatilayotgan kinolarning, multfilmlarning asosiy iste’molchisi esa yoshlar.

Bolalik “o‘g‘rilari”

Ilgari bolalik deganda ko‘z oldimizga “Chillak”, “Oq terakmi, ko‘k terak”, “Bekinmachoq”, “Oshiq”, “Boychechak”, “Ko‘pkari”, “Kurash” kabi xalq o‘yinlari kelardi. Hozirgi yoshlar mediamahsulotlar og‘ushida tarbiya topgani kabi avvallari bolalar o‘yinlar orqali kamolotga yetardi.

Insonning dunyoqarashi shakllanishida xalq o‘yinlarining o‘rni katta. Ular uzoq o‘tmishi, boy tarixiga ega bo‘lgan ajdodlar merosi, ma’naviy boyligimiz sanaladi. Yaqin o‘tmishda bolaning jamiyatga qo‘shilishi va o‘ziga baho berishida, tasavvur olami shakllanishida o‘yinlar asosiy ko‘prik bo‘lgan. Shuningdek, ularning jamiyatda o‘z o‘rnini topishida dasturulamal vazifasini bajargan. Bolalar ko‘p vaqtini shu o‘yinlar bilan o‘tkazgan.

Afsuski, bu kabi o‘yinlarning aksariyati endi tarixga aylanmoqda. Globallashuv, texnik taraqqiyot, soniyada olam-olam ma’lumotlarni taqdim qiladigan ixtirolar bolalikni o‘g‘irlayotgandek. Bugun bu o‘yinlar haqida biror yozuvchining asarida uchratishimiz, ularni ayrim bayramlar, xususan, Navro‘zda ko‘rishimiz mumkin. Bolalarning gadjetlar dunyosiga asir bo‘lgani, borliqqa ekran qarshisida turib baho berayotgani milliy o‘yinlarning tarixga aylanishini tezlashtirayotgandek.

Shu o‘rinda haqli savol tug‘iladi: bolalar dunyoni mitti ekran orqali ko‘rayotgan, idrok etayotgan hozirgi davrda xalq o‘yinlari kerakmi?

— O‘yinlar bolaning ham aqlan, ham jismonan rivojlanishiga yordam beradi. O‘yin bolani jamiyatning faol a’zosiga aylantiradi, — deydi folklorshunos olim, filologiya fanlari doktori, professor Shomirza Turdimov. — Uning jamiyatda o‘rnini topishiga sababchi bo‘ladi. Chunki o‘yinda bola goh o‘yinboshi, ba’zan ishtirokchi bo‘ladi. Soddaroq tushuntirsak, bir o‘yin ichida bola turli darajaga ko‘tarilib, tushadi. Shu orqali unga jamiyat, dunyo haqida bilim beriladi. Qizig‘i, bu bilimlar bolaga majburan emas, unga zavq uyg‘otib o‘rgatiladi. Bizning xalq pedagogikamiz mohiyati shunday.

Zamondan uzilib yashab bo‘lmaydi. Bugun bolalarni ko‘ngilochar o‘yinlardan ayro tasavvur qilish qiyin. Ammo masalaning boshqa tomoni ham bor. Agar e’tibor bersangiz, aksariyat o‘yinlarda qurol bilan nobud qilib, g‘alaba qozonish asosiy shart sifatida belgilangan. Ayrimlar “Bu shunchaki o‘yin”, deyishi mumkin. Ong shundayki, ko‘z bilan ko‘rgan, eshitgan barcha hissiy tuyg‘ular orqali shaxs xarakteri, muomala madaniyatini shakllantiradi. Jamiyatdagi o‘rni shu orqali belgilab beriladi. Ha, o‘yinlar bora-bora insonning ruhiy dunyosiga ta’sir o‘tkazadi.

Bir do‘stim ilm-fan rivoji bilan tanilgan davlatda bo‘lib qaytdi. Undan o‘sha davlatdagi ta’lim, rivojlanish, eng muhimi, yoshlarning intellekti haqida so‘radim. U haqiqatan bu davlatda yoshlarning dunyoqarashi kengligi, tafakkur tarzi yuksakligini aytdi. Shu bilan birga, o‘kinch bilan “Yoshlar yashash mohiyatini yo‘qotib qo‘ygan go‘yo. Ular oila, mehr-muhabbat tuyg‘ularidan ko‘ra, ko‘cha hayotiga ko‘proq urg‘u bermoqda. 13-14 yoshli bolalar ota-onasidan ayro tarzda, ko‘chada yashamoqda. Oila degan tushuncha allaqachon darz keta boshlagan. Yomoni, yoshlarda maqsadsizlik kuchaygan”.

O‘z-o‘zidan oydinlashadiki, hech bir sohani o‘zlikdan, xalqonalikdan, qadriyatlardan ayro tarzda rivojlantirib bo‘lmaydi. Bu tushunchalar yosh avlodga turli ko‘rinishda, xususan, xalq o‘yinlari orqali singdiriladi. Bejiz o‘tmishning ko‘zgusi bo‘lgan doston va ertaklarda bu o‘yinlarga alohida urg‘u berilmagan. Ajdodlarimizning bola tarbiyasi borasidagi tajribasi aynan shu o‘yinlar orqali oshgan. Keling, buni aniq misollarda ko‘rib chiqsak.

O‘yinlar komil insonni tarbiyalaydi

Hech bir inson o‘tmishdan, uni ulg‘aytirgan voqea va hodisalarning xotirasisiz yasholmaydi. O‘ylab qarasam, bolaligimizda o‘ynagan o‘yinlarimiz bizni nafaqat jismonan, balki ma’naviy jihatdan ham anchayin tarbiya qilgan ekan. Insonning jamiyatdagi o‘rni, kasb-korining kamolida odamiylik sifatlari muhim ahamiyat kasb etadi. Bugun o‘zim tengi birga o‘ynab o‘sgan do‘stlarimni kuzata turib, bolalikda o‘yinda qanday bo‘lsa, o‘sha sifatlari ularni jamiyatning eng ilg‘or qatlamiga aylantirganiga guvoh bo‘laman. Boisi, yoshlikda o‘yinlar orqali toblangan shiddat, jamoaga moslasha olish xislatlarini shakllantirgani deb o‘ylayman. G‘irromlik qilib, o‘yinda g‘alaba qozonishga uringan do‘stlarim hayotning turfa bekatlarida ko‘p bora pand yeganini ko‘rdim. Shuning uchun aksariyat o‘yinlarda g‘irromlik qilgan do‘stlarimiz qattiq jazolanardi. Bundan xulosa chiqarganlar esa bu odatini tashlardi.

Yoshlarning jamoaga qo‘shilishida o‘yinlarning ahamiyati katta. Shahardagi yon qo‘shnimning Temur ismli o‘g‘li bor. Ikkinchi sinfga ko‘chishiga qaramay, bolalarga qo‘shilishdan o‘zini tiyadigan, ta’bi nozik bola. Qo‘shnim uni olib bormagan pediatri qolmaganini aytib, bu holatdan o‘kinardi. Bir necha hafta ko‘rinmay qolgan qo‘shnimni uyimiz yonida bolalar o‘yinini tomosha qilib o‘tirganida ko‘rdim. Unga yaqinlashar ekanman, o‘g‘li Temurning bolalar bilan qo‘shilib o‘ynayotganini ko‘rib, buning sirini bilmoqchi bo‘ldim.

Ma’lum bo‘lishicha, yozgi ta’tilda o‘g‘lini qishloqqa — momo bilan boboning qo‘liga tashlab kelgan. U yerda bolalarga qo‘shilib o‘yinlar bilan band bo‘lganini aytib berdi. Hatto shaharga bormayman, deya rosa janjal qilgan emish. Qiziq holat, zamonaviy texnologiyalar, chuqur ilmga ega olimlar dardini bilmagan bolani ana shu o‘yinlar davolagan.



Yuqoridagi bir mulohazada xalq pedagogikasining mohiyati o‘yinlarda mujassam bo‘lgani haqida fikr yuritgan edik. Amaliyot ham bugungi kunda ular o‘z ahamiyatini yo‘qotmaganini ko‘rsatmoqda.

U damlarning shavqi yodimda

O‘ylab qolasan kishi. Insonning aksariyat narsalardan ko‘ngli tez soviydi. Birdan shuhrat qozongan narsaning “umri” bir necha kunda tugab qolyapti. Ayniqsa, bolalarda bu xususiyat juda yuqori. Ular yangi olamlarni, turfa nomlarni eshitgisi, ko‘rgisi keladi. Ammo zamonaviy texnika ularning xohish va istaklari hovurini bosmaydi. Ba’zan ko‘cha-ko‘yda bolalarni kuzata turib, ulardagi tushkun kayfiyatni ko‘raman. Hali tasavvuri to‘liq shakllanib ulgurmagan bolaning bu qadar g‘amga botgani sababini bilgim keladi. Aksariyatining javobidan anglab yetamanki, ularning o‘zini qurshab turgan texnika, zamonaviy narsalarning barchasidan ko‘ngli sovigan. O‘zlari ham anglab yetmagan nedir narsalarga talpinadi. Shaharning shovqinga to‘la muhiti, o‘zgarmas kun tartibi va hatto zamonaviy o‘yinlar ham dardiga malham bo‘lolmaydi. Nazdimda, inson ruhiyati tabiat bilan hamohang tarzda yashashga moslashgan. Qishloqda ham bolalarda ruhiy yolg‘izlik kuzatilishi mumkin, ammo o‘zi tengilar bilan o‘ynash davomida ular bu holatdan chiqib ketgan.

Erta bahorda besh-olti bola bir joyga yig‘ilib qolsak, aksariyat holda chillak o‘ynardik. Eng avval ko‘klam nafasi kezib yurgan adirlardan biror tekisroq joyni tanlab olardik. O‘yin boshlanmasdan oldin yarim metrli tayoq va kichikroq cho‘p tayyorlardik. Odatda tayoq bilan cho‘p sinib ketmasligi uchun tol yog‘ochini tanlardik. Shundan so‘ng chuqurcha kovlardik. Chuqurchaning ustiga kichik cho‘p tashlab qo‘yiladi. Navbati kelgan tengqurlarimizdan biri qo‘lidagi tayoq bilan cho‘pning bir tomonini mo‘ljallab uradi. Otilgan cho‘pni belgilangan hamrohimiz tutib olishi kerak bo‘ladi. Agar belgilangan bola cho‘pni tutib olsa, boladan so‘raladi:

— Chuqurchagacha necha qadam?

— O‘n besh qadam, — deb taxminan javob beradi cho‘pni ushlab olgan bola.

— Unda sana, — deydi bolalar.

Bola qo‘lidagi cho‘pni ushlab chuqurchagacha qadamlab sanab keladi. Agar sanoq noto‘g‘ri bo‘lsa, bolalar unga shart aytardi: uzoqdan “zuvillab kel”, “bir oyoqda sakrab kel”, “ikki oyoqda hakkalab kel”, “qurbaqadek yurib kel”. Erta bilan boshlangan o‘yin odatda kechki payt tugardi.

Har bir jamiyatning oldida turgan asosiy maqsadi jismoniy jihatdan barkamol sog‘lom avlodni yetishtirishdir. Bu yo‘lda xalq o‘yinlari katta rol o‘ynaydi.

Xalq o‘yinlarida milliy ruh mujassam

Ajdodlar azaldan insonni jismonan chiniqtiruvchi, salomatlikka ijobiy ta’sir etadigan mashqlarga jiddiy e’tibor qaratgan. Masalan, ko‘pkari musobaqasi. U har bir ishtirokchidan chavandozlik mahoratidan tashqari jismoniy kuch, o‘tkir zehn va yetti o‘lchab bir kesish salohiyatiga ega bo‘lishni talab qiladi. Ajdodlarimiz shunga mos ravishda tayyorgarlik ko‘rib, ham ruhiy, ham jismoniy o‘sishga erishgan. Xalq o‘yinlari nafaqat bolalar dunyoqarashi shakllanishiga, balki elparvar insonlarni shakllantirishga ham katta hissa qo‘shgan. Biz tomonda chavandozlar juda qadrlanadi. Qaysi xonadonda chavandozlar mehmon bo‘lsa, o‘sha xonadon bolalariga ibrat qilib ko‘rsatishadi.

Umuman olganda, xalq o‘yinlarining barchasi ota-bobolarimizning yashash tarzi, madaniyati va dunyoqarashidan kelib chiqqan holda rivojlangan. O‘sha kezlarda kimdir chavandoz, kimdir qilichboz, yana kimdir mergan sifatida tanilgan. Shuningdek, turli o‘yinlar va mashqlar tufayli ajdodlarimizda har qanday holatdan olib chiqadigan chaqqonlik, yakkama-yakka olishuvga xos uquv shakllangan.

Mulohaza

Har bir millatning dunyo hamjamiyati oldida tutgan o‘rni uning ma’naviy qiyofasi bilan o‘lchanadi. Ma’naviyatning takomili esa o‘sha millatga mansub har bir bolaning ma’naviy kamoloti bilan bevosita bog‘liq. Or-nomus milliy ruhning ikki qanoti bo‘lsa, milliy ruh ma’naviyatning asosidir. Bugun mana shunday jamiyatni bunyod qilishda yoshlarda ma’naviy komillikni shakllantirish kerak. Bu yo‘lda



xalq o‘yinlaridan biri bo‘lgan kurashning o‘rni boshqacha.

Odatda voha tomonlarga yo‘lingiz tushib, odamlarning ko‘ngil qulfiga qo‘l solsangiz, avval polvonlari haqida aytib beradi. Uning oti bilan o‘zini tanishtiradi. Ha, qaysidir qishloqmi, mahalla polvonining ismini ayta turib, u bilan qozoni birligi haqida gapiradi. Jo‘shqin ovozidan polvondan faxrlanishini bilib olish qiyin emas.

Ish yuzasidan voha tomonga yo‘lim tushdi. Mezbonlar meni to‘yga olib bordi. Davra qurilgan. Old qatorda keksa polvonlar cho‘kkan. Oq oralagan quyuq qoshlar orasidagi o‘tkir nigohlar yosh polvonlarning kurash tushishida. Ba’zan maydonda uzoq qolib ketgan yosh polvonlarni ko‘rib, “Hap sening o‘rningda men bo‘lmaymanmi”, deya maydonga otilishga tayyordek tutishadi o‘zini. Ortidagi odamlar esa bugun qaysi polvonlar bosh tovoqqa talabgor bo‘lishi haqida bahslashadi. Kimdir qorasi ko‘rinmayotgan surxonlik Zohid polvonni axtarsa, kimdir qashqadaryolik Sherali polvonni izlaydi.

Bu orada bakovul tovoqlarni e’lon qilar ekan, maydonda polvonlar bo‘y ko‘rsata boshlaydi. Bakovulning zotni e’lon qilib, o‘rtaga tashlagan tovog‘ini qaysidir polvon ko‘taradi. Unga talabgor qo‘l tashlashib, zotga da’vogar bo‘lib chiqadi.

Bakovul zotlarni taqsim qilib bo‘lganidan so‘ng davraga yuzlanadi:

— Agar bir shoir vatanni madh qilib she’r yozmasa, u shoir emas, bir polvonki yurtining shonu shuhrati uchun olishmasa, u polvon emas. Kurashning birinchi vazifasi — or. Agar oring bo‘lmasa, qancha pul topma, u senga yuqmaydi. Xalqning xotirasidan erigan shamday o‘chib ketasan. O‘zga yurtga maydontalab bo‘lib borgan bir yurtning polvonlari qo‘l tashlashmaydi. Biri yiqilsa, biri yurtning origa chiqadi.

Bakovulning bu gaplari davrani bir muddat sukutga cho‘ktiradi. Go‘yoki bu sukut millatning og‘riqlarini o‘rtaga tashlayotgandek.

Taraqqiyotning birlamchi sharti…

Birlik, hamjihatlik, hamfikrlik. Har qanday taraqqiyotning tamal toshi, birlamchi sharti shular, nazarimda. Balki yanglishayotgandirman, lekin muvaffaqiyatga erishgan qaysiki oila, jamoa, hatto jamiyat yoki davlatlarni olib qaramay, bu omillar ularning umumiy yuksalish jihatlari bo‘lib chiqaveradi. Ha, ham fikrda, ham amalda birlik bor joyda bo‘linish bo‘lmaydi. Bir butunlik, yaxlitlik esa yengib bo‘lmas, buyuk ishlarga qodir kuchni yaratadi. Xalq o‘yinlari bolalarni nafaqat tarbiya qilgan, balki ularni birgalikda harakat qilishga ham undagan.

Ayniqsa, bunda jamoaviy o‘yinlarning ahamiyati katta. Misol uchun, bugun deyarli unutilayozgan chavgon o‘yini haqida to‘xtalsak. Chavgon fors tilida “uchi egri tayoq” ma’nosini bildiradi. U otda o‘ynaladigan jamoaviy sport turi hisoblanadi. Chavgon qadimgi Sharqda chorvadorlar o‘yini sifatida paydo bo‘lgan. Keyinroq esa otliq askarlar mashg‘ulotiga aylangan. Sharq xalqlari chavgon to‘pini “go‘y”, egri tayog‘ini “chavgon” deyishgan. Mahmud Koshg‘ariyning “Devonu lug‘otit turk”, Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig”, Boburning “Boburnoma”, Sharafiddin Ali Yazdiyning “Zafarnoma” asarlarida o‘yin haqida qimmatli ma’lumotlar keltirilgan.

Bu o‘yin Markaziy Osiyo xalqlarining juda qadimgi hamda sevimli ot sporti o‘yinlaridan biri hisoblanadi. Ayniqsa, chavgon el-yurt mudofaasi uchun zaruriy jismoniy mashqlardan biri bo‘lgani uchun ham o‘yin g‘olibiga beriladigan sovrinlarning darajasiga alohida to‘xtalib o‘tiladi.

Amir Temurning sevimli o‘yinlaridan biri ham chavgon bo‘lgan. O‘yin davomida bolalardan kimning qobiliyati qaysi jabhada kuchli ekani, kimning jismoniy holati qandayligini bilib olgan. Ya’ni ular bir-birining kamchiligini yopib, birgalikda bir maqsad yo‘lida harakat qilgan. Temurning ulkan zafarlari zamirida bolalikdan birga o‘ynab katta bo‘lgan safdoshlari, do‘stlari yelkadosh bo‘lgani ko‘plab manbalarda yozilgan.

Bobur ham chavgon o‘ynagani haqida “Boburnoma”da yozadi. Sinovlarga boy bo‘lgan umr yo‘lida, ularni yengib o‘tishda, zafarli yurishlarida ko‘p bor qo‘l kelgan. Birgina boburiylar davlatiga asos solishga zamin bo‘lgan jang — Dehli sultoni Ibrohim Lo‘diyning 100 minglik qo‘shinini 12 ming askar bilan yenganiga e’tibor qaratsak. Bobur bu jangda barang‘or va juvong‘ori to‘lg‘ama usulidan foydalangani ayon. Ya’ni otliq askarlar aylanib dushmanni o‘tib zarba berish usuli. 100 minglik qo‘shinni deyarli 10 barobar kam sonli qo‘shin yengishida faqatgina usulning o‘zi kamlik qiladi. Balki yoshlikda o‘ynab katta bo‘lgan, uni nafaqat ma’naviy, balki jismoniy jihatdan ham komil qilib tarbiyalagan o‘yinlarning o‘rni katta.

Oshiq o‘yinini olaylik. Bu ham ko‘pchilikka yaxshi tanish. O‘yin boshlanishidan oldin dastro‘molchaga tennis koptogidan kattaroq oshiq, tosh yoki shu kabi narsa tugiladi. Uni maydonga uloqtirishdan oldin g‘olibga atalgan sovrin e’lon qilinadi. Boshlovchi maydon chekkasida saflanib turgan o‘yinchilarga tugunchani ko‘rsatib uloqtiradi. O‘yin ishtirokchilari otilgan narsani qanday bo‘lmasin boshlovchining qo‘liga olib kelib berishi shart. O‘yin qatnashchilari buyumni olib kelayotgan o‘yinchidan uni tortib olishga harakat qiladi.

Bu bolada diqqat-e’tiborni, sezgirlik va uloqtirish malakalarini tarbiyalaydi. Shuningdek, bolalarda aniq nishonga uloqtirish malakalarini rivojlantiradi. O‘yindagi o‘ziga xos harakat yapaloq toshni nishonga olishdir. Tarbiyaviy ahamiyati yagona maqsad yo‘lida birgalikda harakat qilishni shakllantirishdir.

“Merosxo‘r qorovulday gap”

Xalq o‘yinlarining tavsifi haqida yana uzoq so‘z yuritish mumkin. Muddao shuki, xohlaymizmi, yo‘qmi, bugungi yosh avlodni telefon yoki kompyuter o‘yinlaridan ayro tasavvur qilolmaymiz. Ularni gadjetga bog‘lanib qolayotganlikda ayblashimiz ham noto‘g‘ri. Sababi, yoshlar har doim ibrat qidiradi va unga suyanadi. O‘zi telefondan bo‘shamay turib, farzandini telefon o‘ynatmaslikka harakat qilayotgan ota-onalar bolalarni bu yo‘ldan qaytara olmaydi. Yoxud har qadamda uchrab turgan kompyuter o‘yinxonalari va tobora qo‘llab-quvvatlayotgan kibero‘yinlar muhitida ulg‘ayotgan bolalarni ma’naviy merosimiz bo‘lgan xalq o‘yinlarini o‘ynashga undash ham natija bermaydi.

Onlayn o‘yinlar tasavvurni, aqlni charxlashi mumkin, lekin u yerda bola faqat kuzatish bilan band bo‘ladi. Bu yerda, eng avvalo, kompyuter o‘yinlariga insonni harakatga keltiradigan shartlarni o‘ylab topish kerak, nazdimda. Shunda eski o‘yinlarning mohiyatini saqlab qolib, yangilash mumkin.

— Hech narsa yangidan paydo bo‘lgan emas. Bugun yaratilayotgan kompyuter o‘yinlarining asosi ham o‘yin qayerdan kelayotgan bo‘lsa, o‘sha xalqning folklori, adabiyoti, san’atiga tayanadi, — deydi Shomirza Turdimov. — Biz faqat iste’molchi bo‘lishimiz kerak emas. Bizning ham san’atimiz, folklorimiz bor. Shularni kompyuter o‘yinlariga qo‘shish kerak.

Sivilizatsiyalashgan xalqlarning hammasida xalq o‘yinlari bor. Bir paytlar bitta ko‘cha, bitta mahalla odamlarini yiqqan u yoki bu xalq o‘yini bugun butun dunyoni ekran qarshisiga mixlab qo‘ymoqda.

Xalq o‘yinlari bizga asrlar osha meros bo‘lib kelmoqda. Ular o‘ziga xos qadriyat sifatida ajdodlardan avlodlarga o‘tib kelgan. Bu o‘yinlar yoshlar qalbida vatanga muhabbat tuyg‘usi qaror topishida, milliy ruh shakllanib, xalqimizning an’ana va urf-odatlarini e’zozlash hissi shakllanishida asos vazifasini o‘tagan. Xullas, milliy o‘yinlar yoshlarni o‘zbekona tarbiyalashning eng ta’sirchan vositalaridan biridir. Bu o‘yinlar qanchalik keng yoyilsa, vatanparvar yoshlar safi shunchalik ko‘payadi.

“Yangi O‘zbekiston” va “Правда Востока” gazetalari tahririyati” DM

MUASSIS:
O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi

Bosh muharrir:
Salim DONIYOROV

Tahririyatga kelgan qo‘lyozmalar taqriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.
Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.
Gazeta tahririyat kompyuter markazida sahifalandi.
Gazetaning poligrafik jihatdan sifatli chop etilishiga “Kolorpak” MCHJ mas’ul.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 13-yanvarda 1047-raqam bilan ro‘yxatga olingan.
Nashr indeksi — 236. Buyurtma — 3742.
41218 nusxada bosildi.
Hajmi — 3 taboq. Ofset usulida bosilgan. **Qog‘oz bichimi** A2.
Bahosi kelishilgan narxda.

“Kolorpak” MCHJ bosmaxonasida chop etildi.
Bosmaxona manzili: O‘zbekiston, 100060.
Toshkent, Yangi shahar ko‘chasi, 1-A uy.
Bosmaxona telefoni: (78) 129-29-29

Navbatchi muharrir: Nodir Mahmudov
Musahhih: Asliddin Abdurazaqov
Dizayner: Xurshid Abdullayev

Manzilimiz:
100060, Toshkent shahri,
Shahrisabz ko‘chasi, 85-uy

Qabulxona: (71) 233-56-33 Devonxona va e’lonlar: (71) 233-70-98 E-mail: info@yuz.uz Veb-sayt: www.yuz.uz: (71) 233-47-05

O‘zA yakuni — 00:25 Topshirildi — 00:25